

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 63 (1662), 2026-yil 2-aprel, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



MILLIY DENDROLOGIYA BOG‘I FENOMENI — EKOLOGIK BARQARORLIK VA YASHIL TARAQQIYOT UCHUN MUHIM QADAM

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chat ekish tadbirida ishtirok etib, Milliy dendrologiya bog‘ini barpo etishga start berdi.



Milliy dendrologiya bog‘i yangi O‘zbekistonning bugungi farovonligi va kelajak kafolati uchun yana bir tamal toshidir. Inkor etib bo‘lmas bu haqiqatni anglash uchun yangi bog‘ning moddiy va ma‘naviy qiyofasini ko‘ra olish zarur.

Dendrologiya — daraxt va butalar haqidagi fan. U daraxtlarning anatomiyasi, tur ichidagi sistematikasi, ekologiyasi, geografik tarqalishi kabi jihatlarini o‘rganadi. Sodda qilib aytganda, qaysi daraxt qayerda, qanday iqlim va tabiatda o‘tib-unchisini, yuqori

samara berishini o‘rganadigan yo‘nalishdir. Xalqimizda ikki muhim ishni go‘daklikdan boshlab umr bo‘yi davom ettirish an‘anaga aylangan. Ulardan biri ilm olish bo‘lsa, ikkinchisi — daraxt ekish. Milliy dendrologiya bog‘i shunday

qadriyatlarimizni o‘zida jamlagani bilan ham yangi O‘zbekistonning bugungi va kelajak qiyofasini aks ettiradigan yashil maydondir. Ha, bu bog‘ mamlakatimizning ekologik tashabbuslaridagi ilmiy asosga tayangan yangi bosqich!

Davlatimiz rahbari xalqimizning qadim qadriyatlarini haqida to‘xtalib, jumladan, ajdodlarimiz azaldan Navro‘z kunlarida, oilasida farzand tug‘ilganda tomorqasiga, maydon va xiyobonlarga, yo‘l chetlariga yaxshi niyat bilan ko‘chat qadab, gulu rayhonlar ekanini ta’kidlab.

Yangi O‘zbekistondagi islohotlar samaradorligining siri ham aynan shunday ezgu qadriyatlarga mos holda ish yuritilayotganidir.

Davomi 2-beta

SAYYOHLIK SOHASIDA HAMKORLIKNI KENGAYTIRISH MASALALARI KO‘RIB CHIQUILDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakatimizda tashrif bilan bo‘lib turgan “BMT Turizm” bosh kotibi Shayxa Nosir Al Novaysni qabul qildi.

O‘zbekiston va BMTning ushbu ixtisoslashgan muassasasi o‘rtasidagi ko‘p qirrali va uzoq muddatli hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Tashkilot rahbari O‘zbekistonda turizm sohasida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlarni yuksak baholadi. Sayyohlik infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xizmatlarni diversifikatsiya qilish bo‘yicha izchil choralar amalga oshirilmoqda. Aviaqatnovlar geografiyasi kengaymoqda, yangi muzeylar tashkil etilmoqda, yirik madaniy tadbirlar muntazam o‘tkazilmoqda.

So‘nggi 8 yilda yurtimizga kelgan sayyohlar soni 6 barobar ko‘payib, qariyb 12 million nafarga yetgani alohida qayd etildi. 2030-yilga qadar ularning sonini 20 millonga, turizmning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushini esa 7 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

O‘zbekiston va “BMT Turizm” o‘rtasidagi hamkorlik jadal sur‘atda rivojlanib borayotgani katta mamnuniyat bilan ta’kidlandi. 2023-yilda Samarqand shahrida Tashkilot Bosh Assambleyasi muvaffaqiyatli o‘tkazildi, Xalqaro turizm akademiyasi tashkil etildi, yaqinda esa “Ipak yo‘lida turizm” mavzusidagi ofisning ochilishi bo‘lib o‘tadi. O‘zbekiston tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining 2027-yilni Xalqaro barqaror va yashovchan turizm yili deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi rezolyutsiyasi qabul qilindi.

Suhbat chog‘ida tomonlar sheriklikni yanada rivojlantirish, jumladan, sayyohlik sohasida xalqaro huquqiy bazani takomillashtirish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, ekspertlik va texnik hamkorlikni kengaytirish, turizm sohasi uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash niyatida ekanini qat‘iy tasdiqladilar.

O‘za



Bunday ishlar tariximizda bo‘lmagan

Jahon hamjamiyati guvoh: mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida bahor faslining ilk oyi — mart olamshumul tarixiy voqealar bilan to‘lib-toshdi. Keling, tadjiriy ketma-ketlik an‘anasidan chekinib, gapni davlatimiz rahbari g‘oyasi asosida bunyod etilib, foydalanishga topshirilgan O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi xalqimiz uchun chinakam ulkan ma‘naviy hodisa bo‘lgani borasidagi mulohazalardan boshlasak. Millat tafakkurini boyitishga xizmat qilish missiyasini zimmasiga olgan bu muhtasham maskan yurtimizning boy tarixi, bebaho ma‘naviy merosi, asrlar davomida shakllangan ilm-ma‘rifat an‘analarining yorqin timsoli sifatida barpo etildi.

Bugun O‘zbekiston tinchlik, bilim va ma‘rifatli islom mamlakati sifatida rivojlanmoqda. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, yangi Xorazmiy, Beruniy, Ulug‘bek, Farg‘oniy, Ibn Sino, Buxoriy va Termiziyalar voyaga yetmoqda. Zaminimiz asrlar davomida jahon tamaddunining muhim markazlaridan biri sifatida islom madaniyati va ilm-fan rivojida beqiyos o‘rin tutgan. Buyuk mutafakkirlar, alloma va muhaddislar yetishib chiqqan bu zaminda boy ma‘naviy merosni asrab-avaylash, chuqur o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazish ishlari ilmiy-ma‘rifiy maskan vositasida bajariladi.

Davlatimiz rahbari 17-mart kuni Islom sivilizatsiyasi markazining rasmiy ochilish marosimidagi nutqida xalqimizga qaratib: “Ne-ne ajdodlarimizning orzu-niyatlari, armonlari ro‘yobga chiqqan mana shunday unutilmas kun bilan, chinakam ilm-ma‘rifat bayrami bilan hammangizni chin qalbindan tabriklayman. Mamlakatimizning uch ming



yillik shonli tarixi va boy madaniyatining, yangi O‘zbekiston imkoniyatlarining yorqin ko‘zgusi bo‘lgan ushbu betakror va buyuk majmau barchamizga, butun xalqimizga muborak bo‘lsin!” deya alohida ta’kidlab.

Bundan to‘qqiz yil oldin mazkur majmuani barpo etish haqida maxsus qaror qabul qilib, amaliy ishlar boshlangan edi. BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida e‘lon qilingan bu ezgu tashabbus jahon jamoatchiligi, ayniqsa, islom hamjamiyati tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Markaz binosi Prezidentimizning me‘moriy g‘oya va takliflari asosida loyihalashtirildi. Davlatimiz rahbari ushbu majmuaga bir necha bor tashrif buyurib, bunyod etish jarayonida uning mazmunan va shaklan yanada mukammal bo‘lishi yuzasidan qimmatli tavsiya va maslahatlarini berdi. Xususan, 2025-yilning o‘zida markazga bir necha marta kelib, ekspozitsiyalar, infratuzilma, ma‘rifiy va ilmiy yo‘nalishlarni takomillashtirish bo‘yicha muhim g‘oyalari bilan o‘rtqoqlashdi.

O‘tgan yili minglab xorijiy mehmon tashrif buyurgani Islom sivilizatsiyasi markazining jahon miqyosida katta qiziqish va e‘tibor uyg‘otganini tasdiqlaydi. Mehmonlar orasida Prezidentlar, parlament va hukumat rahbarlari, deputatlar, senator va lordlar, vazir va elchilar, ilm-fan va jamoat arboblari, diniy tashkilotlar rahnamolari borligini ta’kidlash lozim.

“Islom sivilizatsiyasi markazini barpo etishga kirishar ekanimiz, men, dunyoning qayerida bo‘lmasin, tariximizga tegishli bir varaq qo‘lyozma bo‘lsa ham, bitta eksponat bo‘lsa ham topib, yurtimizga olib kelishni orzu qilgan va shu vazifani o‘rtaga qo‘ygan edim. Ming shukrki, bugun ana shu maqsadimizga asta-sekin erishyapmiz. Bu ishlarni, albatta, davom ettiramiz”, dedi Prezidentimiz. Bu gaplarda olam-olam ma‘no, maqsad va mazmun mujassam emasmi?!

O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi mahobati, hududi va qamroviga ko‘ra, dunyoda islom tarixi, madaniyati va

sivilizatsiyalarini o‘rganish hamda targ‘ib etishga qaratilgan yirik majmualardan biri bo‘lib maydonga chiqqani haqida jahon matbuoti allaqachon bong ura boshladi.

FAKT. Ushbu noyob majmau salkam 10 gektar hududda joylashgan, binoning umumiy foydalanish maydoni 50 ming kvadrat metрни tashkil etadi. Bu yerda “O‘zbekiston zaminida islomgacha bo‘lgan davr”, “Birinchi va Ikkinchi Renessans”, “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans paydo‘devori” va boshqa zallar mavjud. O‘tgan yilning o‘zida 1500 dan ortiq eksponat, jumladan, 800 ga yaqin qadimiy qo‘lyozma, arxeologik topilma va tarixiy xaritalar ekspozitsiyaga joylashtirildi. Ayni vaqtda xorijiy auktsion uyarlari, yirik kolleksioner va art dilerlar bilan hamkorlik o‘rnatilib, 743 ta eksponatning asl nusxalari yurtimizga keltirildi.

Davomi 3-beta



MILLIY DENDROLOGIYA BOG‘I FENOMENI – EKOLOGIK BARQARORLIK VA YASHIL TARAQQIYOT UCHUN MUHIM QADAM

Boshlanishi 1-betda

Xususan, xalqimizning tabiatga munosabati ham tubdan o‘zgarib boryapti. Hayotimizga va tafakkurimizga “Yashil makon” umummilliy loyihasi kirib keldi. Uning doirasida so‘nggi besh yildan buyon har yili 200 million tup ko‘chat ekilmoqda. Bugun qayerga bormang, yangi bog‘larga, yashil maydonlarga duch kelasiz. Raqamlar esa o‘tgan qisqa muddatda katta marra olinganidan dalolat beradi. Xususan, o‘tgan davrda 2000 gektardan ziyod maydonda 942 ta yashil bog‘ va yashil jamoat parki barpo etilgan. Bundan tashqari, 47 massivda “Yangi O‘zbekiston bog‘lari” yaratilgan.

Iqlim o‘zgarishi asoratini yumshatishda o‘rmonlarning o‘rni alohida. Shu bois, yurtimizdagi cho‘l va adirlarda 256 ming gektari o‘rmon tashkil qilindi. Yana bir yirik loyiha esa, shubhasiz, Orolbo‘yida yashil qoplamalar hududining kengayib borayotganidir. Mamlakatimizda so‘nggi yillardagi islohotlar Orolbo‘yiga yangi hayot nafasini olib kirdi. Natijada ko‘lining qurigan tubidagi 2 million gektar maydon yashil qoplamali himoya o‘rmoni yaratildi. Shamol va qum-chang bo‘ronlari zararli ta‘sirining oldini olish maqsadida 33 tumanda 60 kilometrli “yashil belbog‘” hosil qilindi. Shuning o‘ziyiq yangi O‘zbekistondagi islohotlar real natija, odamlarni rozi qilish yo‘lida bajarilayotganini ko‘rsatadi.

Bular hali boshlanishi. Oldinda yana ko‘plab bog‘lar yaratish, ilmiy asosda ularning yashovchanligini oshirishdek vazifalar turibdi. Bu missiyaning munosib uddalash uchun esa zarur quvvat zarur kerak. Shu bois, o‘tgan yili Xo‘jayli, Yangibozor, G‘ijduvon, Baliqchi va Ohangaron tumanlarida zamonaviy ko‘chatxonalar ishga tushirildi. Ular yiliga 5,5 million tup manzarali daraxt ko‘chati yetishtirish imkonini beradi. Qadalgan har bir nihol bexato ko‘karishi uchun esa ilimga asoslangan puxta reja zarur. Ilm nafaqat ko‘chatni to‘g‘ri tanlab parvarishlashni, balki zamon talablarini hisobga olishni ham o‘rgatadi. Bugun butun dunyoda suv ta‘minoti masalasi yil sayin dolzarblilik kasb etib boryapti. Daraxtlar esa yer ostidagi namlikni tutib turishi bilan ham ekologik masalalarga yechim bo‘ladi. Biroq u soyasi, baqovvat ildizi bilan namlikni saqlashi uchun avval unib-o‘sishi kerak. Demak, dastlab ko‘chatga suv berish zarur. So‘ng ushbu sarmoyani o‘n hissa qilib qaytib olishimiz mumkin. Ana shu oraliqdagi muddatda eng maqbul yechim suvsizlikka chidamli nihol qadashdir.

Bu borada ham amaliy ishlar boshlangan. Xususan, Xitoy tajribasi asosida joriy yil ilk bor Arnasoy, Qorako‘l, Muborak, Karmana va Nukus tumanidagi 50 gektar maydonida suvsizlikka chidamli galofit bog‘lari barpo etildi. Ta‘kidlanganidek, bu yerda yetishtirilgan galofit urug‘lari kelgusida minglab gektar yerda sho‘rlanishni kamaytirish va tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman, qisqa muddatda mamlakatimizda yashillik darajasi 8 foizdan 14,2 foizga oshdi. O‘tgan hafta Prezidentimiz imzolagan yangi farmonga muvofiq, 2030-yilga qadar mamlakatimizda umumiy yashillik darajasini 30 foizga, jon boshiga to‘g‘ri keladigan yashil hududlarni 10 kvadrat metrga yetkazish bo‘yicha katta marra belgilandi. Ko‘zlangan marrani munosib tarzda zabt etishning ham aniq maqsadli rejasiz tuzilgan. Jumladan, Surxondaryoda 10 ming gektarda “yashil makon”, Sirdaryoda 84 kilometrli “yashil devor” barpo etiladi. Bundan tashqari, Qoraqalpog‘istonda 1 million gektar, Navoiy va Buxoroda 300 ming gektardan, Xorazmda 85 ming gektar cho‘l hududida yangi o‘rmonlar yaratiladi. Shuningdek, viloyat hokimlarining har biri kamida 100 gektar maydonida botanika va dendrologiya bog‘lari, 20 tadan soya-salqin sayr ko‘chalari tashkil qilishga mas‘ul bo‘ladi.

Ekologiya va aholi salomatligi eng dolzarb masalaga aylanib borayotgan ayni pallada hududga mos daraxt turlarini tanlash va ekishda Xalqaro molekulyar allergologiya markazining tavsiyalari ham muhimligi qayd etildi. Buning barchasi yuksak intellektga ega, salohiyatli kadrlarni talab etadi. Masalaning ayni jihati ham e‘tibordan chetda qolgan yo‘q.

Xususan, joriy yildan har bir hududda “yashil” texnikumlar faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Ularda dual ta‘lim asosida yiliga 10 ming mutaxassis tayyorlanadi. Muhimi, botanika va dendrologiya bog‘lari ushbu texnikum o‘quvchilari uchun amaliyot bazasiga, ilmiy xodimlar uchun esa tadqiqot maydoniga aylanadi.

Jamiyat bir butun xalq, yagona Vatan bo‘lib harakatga kelsa, tashabbuslar amaliy natijaga aylanadi. Agar bunday ezgu sa‘y-harakatlar ming yillik qadriyatlardan suv ichib, milliy o‘zlik bilan yo‘g‘rilsa, asrlar davomida foyda keltiradigan kuchga aylanadi.

Prezidentimiz hududlarda yashil bog‘lar yaratish bo‘yicha aholi va deputatlar ishtirokini yanada kengaytirishni taklif qildi. Ilgari “Mening bog‘im” dasturi doirasida har bir loyihaga byudjetdan 250 million so‘mgacha mablag‘ berilgan bo‘lsa, endi bu miqdor 400 million so‘mga oshiriladi. Har bir yashil bog‘ va jamoat parki uchun aholi o‘zi tanlagan, yashash hududlariga yaqin va eng muhimi, suv ta‘minoti mavjud joylardan 1 gektargacha yer ajratiladi. Bu yilgi mavsumdan Qonunchilik palatasining har bir deputatiga ham o‘z okrugida yashil hudud va yashil bog‘ yaratishi uchun 412 million so‘mdan mablag‘ beriladi. Bularning barchasi yangi O‘zbekistonning dunyoni yashil bog‘, ezgulik qiyofasida ko‘rishga kuchli itilishi va sa‘y-harakati yanada keng quloch yozishiga xizmat qiladi.

So‘zimiz avvalida xalqimizning azaliy qadriyatlarini bejiz yodga olmadik. Ildizi baqovvat nihol tez unadi. Tabiatda yana bir g‘aroyib fakt bor.

Agar daraxtning quyi shoxchasidagi barg qovjirasa, unchalik xatarli emas. Bu tashqi ta‘sir tufayli yuzaga kelgan bo‘lishi mumkin. Biroq ildizning asl holatini daraxt uchidagi barglar ko‘rsatadi. Jamiyat hayoti ham shunga o‘xshaydi. Shu bois, yangi O‘zbekistondagi masalalarni eng quyi tizimdan — mahalla, xonadonlarda hal etishga alohida e‘tibor berilyapti. Buni “Yashil makon” umummilliy loyihasi misolida ham ko‘rish mumkin.

Mamlakatimiz yetakchisi xalqimizda “Yaxshidan bog‘ qoladi”, “Bir ko‘chat — ming baraka”, “Farzand ko‘rsang, to‘y qilsang, daraxt ek” degan hikmatlar bejiz aytilganini ta‘kidlaydi. Milliy qadriyatlarining ahamiyati bugun har qachongidan ham dolzarb ekanini qayd etildi.

Prezidentimiz mahalla raislari, otaxon va onaxonlarimiz, xotin-qizlar vakillari hamda barcha faollarni yashil bog‘lar yaratishda faol bo‘lishga chaqirdi. Ta‘kidlanganidek, ular o‘z hududida milliy urf-odatlar, an‘ana va qadriyatlarini yanada keng targ‘ib qilsa, klublar va jamoalar tashkil etib, har bir ko‘cha, xonadon, yo‘l bo‘ylariga nihol va gullar, qir-adirlarga daraxt va butalar ekishda bosh bo‘lsa, qanday yaxshi. Axir bir el, yagona xalq va vatan bo‘lish shuni talab etadi-ku!

Joriy mavsumdagi yana bir quvonchli mujda. Poytaxtimizdagi 108 gektar maydonida Milliy dendrologiya bog‘i tashkil qilinmoqda. Bu yerdagi “Yashil” universitet hududida “Ilm — loyiha — amaliyot” janri asosida barpo etilayotgan “in vitro” laboratoriyasi, Dorivor o‘simliklar hamda Urug‘chilik va seleksiya markazlari ham shu yilning o‘zida ishga tushiriladi. Shu ma‘noda, uni yashil olamning ilmiy akademiyasi deyish mumkin.

Prezidentimiz tadbirda ishtirok etayotgan BMTning O‘rmonlar bo‘yicha forumi raisi Ismoil Belen, forum kotibiyati direktori Juliety Biao, xorijiy davlatlarning O‘zbekistondagi diplomatik korpusi vakillari hamda barcha ishtirokchilarga samimiy minnatdorlik bildirdi.

Davlatimiz rahbari tadbir yakunida ishtirokchilar bilan birga Milliy dendrologiya bog‘ining ilk 5 gektar maydonida manzarali ko‘chatlar ekdi. Ayni vaqtda respublikamizning barcha hududida 21 mingga yaqin yurtdoshimiz yana 164 gektar maydonida 88 ming tup ko‘chat o‘tqazdi.

Milliy dendrologiya bog‘ining ilk nihollarini ekayotgan yurtdoshlarimiz, yuzida quvonch aks etgan. Kimdir suv tashigan, kimdir belkurakni hamrohiga bergisi kelmay, ildiz ustiga tuproq soladi. Maqsadi, murodi musharak odamlarning nafaqat libosi, qalbi ham yashillikka, yaxshilikka burkanganini his etish qiyin emas. Ularni zimdan kuzatgan kishining ko‘nglidan yorug‘ o‘ylar o‘tadi. Bu o‘ylar bugunimizdan quvontirib, ertangi kunimizga ishonch beradi.

Boboravshan G‘OZIDDINOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

HAR BIR KO‘CHAT – HAYOT

Ulug‘bek QOSIMOV,
Surxondaryo viloyati hokimi



Joriy yil 1-aprel kuni mamlakatimiz hayotida yana bir juda muhim voqea bo‘ldi. Prezidentimiz “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chat ekish tadbirida ishtirok etdi. O‘sha yerda Milliy dendrologiya bog‘ini barpo etishga start berildi. Ekologiyani asrashga qaratilgan bunday islohotlar yil sayin tizimli tarzda izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, joriy yil 23-mart kuni ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 2026-2030-yillarga mo‘ljallangan ustuvor umummilliy loyihalar muhokama etilgan edi.

Prezidentimiz belgilab bergan chora-tadbirlar va imzolagan yangi farmonga ko‘ra, O‘zbekistonda 2030-yilga qadar umumiy yashillik darajasini 30 foizga, jon boshiga to‘g‘ri keladigan yashil hududlarni 10 kvadrat metrga yetkazish bo‘yicha katta marra olindi. Buning uchun Surxondaryoda 10 ming gektarda “yashil makon” barpo etiladi. Cho‘l hududida yangi o‘rmonlar yaratiladi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar natijasida Surxondaryo viloyatida “yashillik darajasi” 14,5 foizni tashkil etmoqda. Vaholanki, bu ko‘rsatkich 2020-yilda 9 foiz edi. Endi marrani yanada baland olib, 2026-yil yakunida bu raqamni 15,8 foizga yetkazish maqsad qilingan.

Shuningdek, Surxon vohasida afg‘on shamolining salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun 2026-2030-yillar davomida 10 ming gektarda yer maydonida “yashil qoplama” hamda “yashil belbog‘” tashkil etiladi. Chang-to‘zoni afg‘on shamoli qo‘shni davlatning shimoliy hududidagi 600 ming gektar maydondagi qum barxanlari orqali kirib kelmoqda. Bunday shamollar bir yilda o‘rtacha 151 kungacha kuzatiladi. Uzlusiz davomiyli 8 soatdan 24 soatgachani

tashkil etadi. Yoz jazirasida faslga xos quruqlik sabab shamol tezligi sekunda 7-12 metr bo‘lsa ham chang-to‘zon ko‘tarilishi kuzatiladi. Buni bartaraf etish uchun xorij tajribasini o‘rganib, ilm asosida yondashmoqchimiz.

Ayni maqsadda Sherobod tumanida 100 gektari botanika va dendrologiya bog‘lari hamda “yashil texnikum” ochildi. Texnikumda viloyat iqlimiga mos ko‘chatlar yetishtiriladi. Ayrim turlar iqlimga moslashtirilib, ko‘paytiriladi. Bu maqsad uchun alohida “in vitro” laboratoriyasi tashkil etiladi. Afg‘oniston bilan chegara bo‘ylab 390 gektar (150 kilometr masofada) maydonida 3,7 million tup ko‘chat ekilib, “yashil belbog‘” qilamiz. Aholining madaniy hordiq chiqarishi uchun barcha tumanlarda soylali sayil ko‘chalari, “Mening bog‘im” loyihasi bo‘yicha 15 ta “yashil bog‘” va “yashil jamoat parki” barpo etamiz.

Surxondaryoning bahorida ham havo tez isiydi. Shuni hisobga olib, bahorgi ko‘chat ekish ishlarini yanvar oyidan boshlaganmiz. Bunda markazlashgan holda ko‘chat ekishga alohida e‘tibor qaratilgan. Xususan, tashkilot va idoralar tashabbusi bilan davlat xizmatchilari

“ AHOLINING MADANIY HORDIQ CHIQRISHI UCHUN BARCHA TUMANLARDA SOYLALI SAYIL KO‘CHALARI, “MENING BOG‘IM” LOYIHASI BO‘YICHA 15 TA “YASHIL BOG‘” VA “YASHIL JAMOAT PARKI” BARPO ETAMIZ.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning xayrli tashabbusi – “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chat ekish tadbirida ishtirok etish baxtiga muvaffaq bo‘lganimdan juda xursandman.



Ismoil BELEN,
BMTning O‘rmonlar bo‘yicha forumi raisi

Yurtimizda ilk bor Milliy dendrologiya bog‘i barpo etilayotgani bizni quvontiradi. Shu sohada uzoq yillik tajribaga ega inson sifatida aytmanki, ko‘chatning mahalliy iqlimga mos turlarini tanlash, ularni ilmiy asosda parvarish qilish juda muhim. Milliy dendrologiya bog‘i aynan shunday ilmiy markaz bo‘lishiga ishonaman. Umuman, yurtimizda Milliy dendrologiya bog‘i tashkil etilishi kelajak avlodlar uchun muhim merosdir.

Keyingi yillarda O‘zbekistondagi ekologik masalalarga yondashuv tubdan o‘zgardi. Bu yerda raqamlar yo‘q hisobotlar uchun emas, balki amaliy natija uchun jonkuyarlik, hamjihatlik, fidoyilik bilan ishlamoqda. Ayniqsa, “Yashil makon” loyihasini alohida ta‘kidlash kerak. Loyihani nafaqat mintaqaviy, balki global ahamiyatga ega tashabbus deb bilaman. Ushbu loyiha boshlangach, qisqa vaqtda yurtimizda yashil maydonlar hududi keskin ko‘paydi. Bu borada hayratlanarli natijalarga erishilyapti.

Shu o‘rinda O‘zbekistonning iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish borasidagi sa‘y-harakatlarini alohida e‘tirof etishimiz kerak. O‘zbekiston mazkur yo‘nalishda

xalqaro hamkorlik borasida ham ilg‘or. Mamlakatimiz yetakchisi doim barchamiz uchun zarur va foydali bo‘lgan dolzarb tashabbuslarni ilgari suradi. O‘zbekistondagi ochiqlik va tinchliksevarlik siyosati bu tashabbuslarni to‘la qo‘llab-quvvatlab, amalga oshirishda juda muhim rol o‘ynayapti. Bu yerdagi “yashil” universitet hududida “ilm — loyiha — amaliyot” janri asosida barpo etilayotgan “in vitro” laboratoriyasi, Dorivor o‘simliklar hamda Urug‘chilik va seleksiya markazlari ham shu yilning o‘zida ishga tushirilishi ayni muddao.

Yaxshi niyatda ekilgan har bir ko‘chat bu — hayot, bu — toza havo, bu — sog‘lom muhit, bu — kelajak. Davlatimiz rahbarining ushbu teran mazmunli so‘zlari har bir yurtdoshimiz uchun amaliy hayot dasturiga aylanshi lozim. Bu yo‘lda

Munosabat DARAXT EKISH MING YILLIK QADRIYAT

Ko‘chat ekish, bog‘ yaratish — xalqimizga xos ezgu amal. Zero, ota-bobolarimiz azaldan farzandli bo‘lganida daraxt ekkan. Ushbu qadriyat elu yurtga har jihatdan manfaatli bo‘lgani uchun ham avlodlar avlodga o‘tib kelmoqda. Chunki ekilgan har tup nihol vaqt o‘tib mo‘l rizq ulashadi, mevasizlari yashil uchun qurilajak yangi uylarga ustun bo‘ladi. Qolaversa, ildizi atrofidagi yerda namlik saqlashi, soyasi bog‘lanishni kamaytirishi kabi xususiyatlari hisobiga mikroiklim barqarorligi, atrof-muhit musaffoligini saqlashga xizmat qiladi. Bu, ayniqsa, tabiat inijliklari, global ekologik muammolarning salbiy ta‘sirini ortib berayotgan hozirgi murakkab sharoitda juda muhim.



Mavludaxon MAMADALIYEVA,
Zoyiyovon tumanidagi “Buvijonlar maktabi” a‘zosi

mahalla raislari, nuroniy otaxon va onaxonlarimiz, xotin-qizlar vakillari hamda barcha faollarga murojaat qilib, joylarda milliy urf-odatlarimiz va qadriyatlarimizni yanada kengroq targ‘ib qilishga chortladi. Bu bejiz emas, albatta.



Joriy yildan har bir hududda “yashil” texnikumlar faoliyati yo‘lga qo‘yilib, dual ta‘lim asosida yiliga 10 ming mutaxassis tayyorlanadi, botanika va dendrologiya bog‘lari texnikum o‘quvchilari uchun amaliyot bazasi, ilmiy xodimlar uchun esa tadqiqot maydoniga aylanadi. Hududlarda yashil bog‘lar yaratish bo‘yicha aholi va deputatlar ishtirokini yanada kengaytirish maqsadida bu boradagi loyihalar uchun ajratilayotgan mablag‘lar miqdori oshirildi. Bularning zamirida tabiat va Ona Vatanga muhabbat tuyg‘usi mujassam.



Har bir ko‘cha, xonadon va yo‘l bo‘ylariga nihol qadash, qir-adirlarga daraxt va buta ekishda katta avlod vakillari yoshlarga bosh bo‘lishi, tabiatni sevish va asrash bo‘yicha o‘mak ko‘rsatishi zarur. Xalqimizning “Yaxshidan bog‘ qoladi”, “Bir qo‘llab eksang, ikki qo‘llab o‘rasan”, “Ko‘chat eksang, umring uzayar”, “Bir daraxt eksang — bog‘ bo‘lar, uchta eksang — o‘rmon”, “Bog‘ qilsang, bog‘bon qil”, “El obod — sen obod” kabi ibratli hikmatlari bejiz aytilmagan. Chunki yaxshi niyatli inson hamisha ezgu ishlarga undaydi.

Xalqimiz ertasini o‘ylab uy quradi, yerga urug‘ sochadi, ko‘chat ekadi. Bugun ushbu qadriyatimiz ahamiyati har qachongidan ham dolzarb bo‘lib borayotganini barchamiz kundalik hayotimizda, global iqlim o‘zgarishlari fonida yaqqol his etib turibmiz. Shundan kelib chiqib, ishonch bilan ayta olamanki, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlarni yanada takomillashtirish, bu tashabbusning nechog‘liq ahamiyatli ekanini targ‘ib qilish yurt taqdiri, kelajagiga daxldor barchamizning kechiktirib bo‘lmas vazifamizdir.

“Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida barpo etilayotgan bog‘lar hisobiga yurtimiz yashillikka burkanmoqda. Uzoqqa bormaylik, Zoyiyovon tumanida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi bunyodkorliklar sabab Markaziy Farg‘ona yerlarida yangi bog‘-rog‘lar bo‘yo‘rsatadi. Bundan uch yil avval ekilgan mevali va manzarali daraxtlar ildiz otib, yashil belbog‘lar, mevali bog‘larga aylandi.

Ayni yo‘nalishdagi ishlar bu yil bahorgi ekish mavsumida ham yanada rivojlandi, tarqayotdi. Shu kunga qadar joylarda 360 ming tupdan ortiq mevali va manzarali ko‘chat ekildi. Ekilgan har bir nihol nafaqat havoni tozalashi, balki ona zamin musaffoligiga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Bu jarayonda faqat son emas, sifat va doimiy parvarish birinchi o‘ringa chiqishi lozim. Har bir niholning taqdiriga befarq bo‘lmaslik, uni voyaga yetkazish uchun jamoatchilik nazoratini kuchaytirish bugungi kunning muhim amallardan.

Bir so‘z bilan aytganda, tabiatni asrash va yashillik dunyosini kengaytirish oddiy ekologik tadbir emas, balki insoniyatning yer yuzidagi umrbog‘iyligini ta‘minlovchi eng oliy mas‘uliyatdir. Zero, yashillik ham odamlarga, ham tabiatga yaxshilikdir. Ezgu maqsadlarni qamrab olgan hayotbaxsh islohotlarda “Buvijonlar maktabi” faollari ham ishtirok etadi.

MILLAT TAFAKKURINING ASOSI: TINCHLIK, EZGULIK, BILIM VA MA'RIFAT



Nodir MAHMUDOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Ziyo taratuvchi qutlug' maskanlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 18-mart kuni hududlarida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari, sohalaridagi loyihalar bilan tanishish hamda yangilarini ishga tushirish, viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha navbatdagi ustuvor vazifalarni belgilash maqsadida Samarqandga bordi. Tashrifning ikkinchi kuni davlatimiz rahbari yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va farovonlik nafasi, muborak Ramazon hayati hamda Navro'z bayrami shukuhiga hamohang ravishda viloyatdagi qator diniy-ma'rifiy bo'linishdagi bunyodkorlik ishlari bilan tanishdi.

Imom Buxoriy majmuasi nafaqat Samarqand yoki O'zbekiston, balki butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk manzillardan. Chunki buyuk muhaddis yashagan davr vaqt nuqtayi nazaridan ham, zamon nuqtayi nazaridan ham uzoq o'tmishga ega. Alloma yaratgan maktab, ta'lim, ilm, katta ma'rifiy meros hech qanday vaqtda bo'ysunmaydi. Zero, u umrini bag'ishlagan ilm barhayot.

Prezidentimiz Samarqand viloyati Payariq tumanida qaytadan bunyod etilgan ushbu majmuada ham bo'ldi. Ziyoratgohning qoq markazidan buyuk hadisshunos bobomizning maqbarasi o'r'in olgan. Davlatimiz rahbari maqbarani ziyorat qildi. Qur'on o'yatlarini tilovat etilib, duo o'qildi.

— Buxoriy bobomiz Qur'oni karimdan keyingi eng mo'tabar manba bo'lgan hadislar kitobini yaratib, butun islom olamida shuhrat qozongan ulug' siymodir. Muqaddas zaminimiz dunyoga mana shunday mashhur allomani bergani bilan har qancha faxrlansak, arziydi. El-yurtimizning fidokorona mehnati bilan bugun orzu-niyatlarimiz ro'yogha chiqdi. Bu betakror ziyoratgohni Imom Buxoriy bobomizning olamshumul mavqeiga, yuksak maqomiga munosib darajada bunyod etishga muayassar bo'ldik. Mana shunday tabarruk maskan barchamizga muborak bo'lsin, — dedi davlatimiz rahbari.

Majmuva mamlakatimiz yetakchisi tashabbusi bilan buyuk muhaddis bobomizning islom olamidagi yuksak mavqei, ulkan salohiyatiga munosib tarzda qaytadan bunyod etildi. Ziyoratchilarga har tomonlama qulay sharoit yaratildi.

FAKT. Majmuva huzurida turizm markazi ochildi. Yondosh 15 gektar maydonda zamonaviy infratuzilma yaratilib, shinam mehmonxonalar, xizmat ko'rsatish va servis nuqtalari barpo etildi. Jumladan, 1 ta to'rt yulduzli, 2 ta uch yulduzli mehmonxona, 22 ta 176 o'rinni oilaviy mehmon uyi hamda avtoturargoh qurilgan. Imom Buxoriy majmuasi ilgari bir kunda 12 ming ziyoratchiga xizmat ko'rsatgan bo'lsa, hozir kuniga 65 ming ziyoratchini qabul qilish quvvatiga ega. Maydoni 45 gektarni tashkil etadi. 10 ming kishiga mo'ljallangan ulkan masjid, ma'muriyat binosi, 154 ustunli, milliy uslubdagi muhtasham ayvon qurildi. Qadamjodagi 14 ta moviy gumbaz, 75 metrli 4 ta minora ulug'vor qiyofa bag'ishlab turibdi.

Uyg'onish va ruhiy poklanish ramzi

Navro'z arafasida mamlakatimizda Ramazon hayati keng nishonlandi. Davlatimiz rahbari O'zbekiston xalqiga tabrik yo'llab, yurdoshlarimizni ezgulik, mehr-oqibat va saxovat ayvomi bilan chin qalbdan samimiy muborakbod etdi. Tabrikda keyingi yillarda shakllangan an'anaga muvofiq, mamlakatimizda Ramazon oyini munosib o'tkazish bo'yicha bu yil ham xalqimiz bilan birgalikda ko'plab xayriy ishlar bajarilgani ta'kidlandi.

"Avvalo, maxsus qaror asosida aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida keyingi 35 yilda birinchi marta 1 trillion so'm mablag' ajratilib, muhtoj va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, bemorlarga zarur tibbiy yordam

ko'rsatish kabi ezgu ishlarga sarflanganini ta'kidlash lozim. Xususan, 450 milliard so'm 600 mingdan ziyod ehtiyojmand oilaga moddiy ko'mak tariqasida yo'naltirildi. Bundan tashqari, ijtimoiy reyestrdragi davolash rejalashtirilgan 6000 nafar bemorga tibbiy yordam ko'rsatilmoqda, jumladan, og'ir kasallar operatsiya yo'li bilan davolanmoqda", dedi davlatimiz rahbari.

Yurdoshlarimiz 20-mart kuni Ramazon hayati namozini ado etdi. Ibadat chog'ida yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalik, farovonlik va barqaror rivojlanish bardavom bo'lib, jahonning turli hududidagi urush va nizolar tezroq barham topib, barcha xalq tinchlik va barqarorlikda hayot kechirishini tilab duolar qilindi.

Shuningdek, 19-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Navro'z umumxalq bayrami va muborak Ramazon hayatini nishonlash arafasida xalqimizga xos ezgulik, mehr-oqibat, bag'rikenglik, kechirimli bo'lish kabi olijanob fazilatlarini namoyon etgani holda hamda davlatimiz yuritayotgan insonparvarlik siyosatining amaliy tasdig'i sifatida "Jazo muddatini o'tayotgan, qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan bir guruh shaxslarni afv etish to'g'risida"gi farmoni imzoladi.

Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 109-moddasi 23-bandiga asosan jazo muddatini o'tayotgan hamda qilmishiga chin ko'ngildan pushaymon bo'lgan va tuzalish yo'liga qat'iy o'tgan 392 shaxs afv etildi. Afv etilganlarning 223 nafari asosiy jazodan to'liq ozod qilindi, 82 nafari jazoni o'tashdan muddatdan ilgari shartli ozodlikka chiqarildi, 34 nafari ozodlikdan mahrum etish jazosi yengilroq jazo bilan almashirildi.

Farmon ijrosi yuzasidan afv etilgan shaxslarni oilasi va yaqinlari bag'riga qaytarish, ijtimoiy hayotga moslashib, foydali mehnat bilan shug'ullanishi, sog'lom turmush tarzini yo'lga qo'yib, jamiyatda munosib o'r'in topishi uchun ularga ko'mak berish bo'yicha mas'ul vazirlar va idoralarga tegishli topshiriqlar berildi.

21-mart kuni "Yangi O'zbekiston" bog'ida Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Unda Prezidentimiz ishtirok etib, butun xalqimizni qutladi. Davlatimiz rahbari millati, tili va dinidan qat'i nazar, har bir yurtidoshimizni rozi qilish, xalqimiz farovonligini ta'minlash yo'lidagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilayotganini ta'kidladi. Bu yil bayram "Navro'zni ulug'lash — insonni ulug'lashdir!" degan g'oya asosida o'tayotgani ham ana shu ezgu maqsadlarning amaliy ifodasi ekanini qayd etdi.



Ming yillar davomida xalqlar o'rtasida ma'naviy ko'priklar bo'lib kelayotgan Navro'zning tinchlik, do'stlik va hamkorlik g'oyalari bugungi notinch zamonda yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari ushbu bayramni bir bo'lib, shodu xurramlik bilan nishonlamogda. Ana shunday ahillik va totuvlik yangi O'zbekistonni birgalikda barpo etishning eng ishonchli kafolati bo'lib maydonga chiqdi.

Mamlakatimiz yetakchisi shu kuni poytaxtimizning Yakkasariy tumanidagi Milliy madaniy markazlar pavilyoniga tashrif buyurdi hamda yurtimizda istiqomat qilayotgan turli millat va elat vakillari bilan muluqot qildi.

Do'stlik bog'i hamda Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi binosiga tutash maydonda barpo etilgan, 22 millatning o'ziga xos arxitekturasi aks etgan pavilyon yurtimizda milliy madaniyatlarini rivojlantirish, millatlararo totuvlikni asrab-ayvaylash va mustahkamlash, shu orqali yosh avlodni bag'rikenglik va hamjihatlik ruhida tarbiyalashga davlat siyosatining muhim yo'nalishi sifatida qaralayotganining yorqin tasdig'idir.

Bu yerda qozoq, qirg'iz, turkman va boshqird o'tovlari, koreys, belarus, ukrain, grek, olmon, dungan, polyak, yahudiy, gruzin, arman, tatar va qrim-tatar, uyg'ur, turk, tojik, xitoy, rus hamda ozarbayjon xalqlarining ikki qavatdan iborat do'stlik uylari joylashgan.



Davlatimiz rahbari har bir milliy maskan faoliyati bilan tanishdi. Ishtirokchilar bilan samimiy muluqot qildi. Uchrashuvlar chog'ida milliy-madaniy markazlarning umumxalq bayramlarini yuksak ruhda o'tkazishdagi hisssasi alohida e'tirof etildi. Yuksak vatanparvarligi, fidoyi mehnati bilan respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishga qo'shayotgan hisssasi uchun turli millatga mansub yurtidoshlarimizga minnatdorlik bildirildi.

FAKT. Yurtimizda 130 dan ziyod millat va elat vakillari yagona, ahil oila bo'lib yashab kelmoqda, 157 ta milliy madaniy markaz faoliyat yuritmoqda. Bu xilma-xillik ko'p asrlik tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan noyob ijtimoiy hodisadir.

Ayollar e'zozda va himoyada

Mamlakatimizda inson qadriini ulug'lash, ayniqsa, ayollar va bolalarning huquq hamda

opa-singillarimizning mukofotlanishi esa ayyomga yanada ko'tarikilik bag'ishladi. Mamlakatimizda mo'tabar ayol zotiga ulkan e'tiroh ko'rsatish, davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va nufuzini oshirish, shuningdek, samarali mehnati, boy bilimi va tajribasi bilan yurtimizdagi keng ko'lamli islohotlar jarayonida faol qatnashib, yangi O'zbekistonni barpo etish, xalqimiz farovonligini yuksaltirish yo'lida alohida tashabbus va ibrat ko'rsatib kelayotgan xotin-qizlarni munosib taqdirlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni imzoladi.

Unga ko'ra, davlatimizning "O'zbekiston Respublikasi xalq shoiri" faxriy unvoni, "Mehnat shuhrati", "Do'stlik", II darajali "Sog'lom avlod uchun", II darajali "Salomatlik" ordeni, "Sog'lom turmush", "Sodiq xizmatlari uchun", "Kelajak bunyodkori", "Shuhrat" medali kabi yuksak mukofoti o'z egalariga tantanali topshirildi. Shuningdek, davlatimiz rahbari "Zulfiya nomidagi davlat mukofoti bilan taqdirlash to'g'risida"gi qarori bilan mamlakatimizda xotin-qizlarni e'zozlash, ularning ezgu orzu-intilishlarini qo'llab-quvvatlash hamda o'zining iqtidori, muhim g'oya va tashabbuslari, ibratli amaliy ishlari va erishgan yutuqlari bilan yoshlarga o'rnatib ko'rib kelayotgan qizlarimizni ham munosib rag'batlantirdi.

6-mart kuni Ko'ksariy qarorgohida bo'lib o'tgan bayram tadbirida esa Prezidentimiz turli sohalaridagi mehnati, iste'dodi va aql-zakovati bilan yangi O'zbekistonni barpo etishga munosib hissa qo'shib kelayotgan ayollarimizga, xalqaro maydonlarda Vatanimizni dunyoga tarannum etayotgan qizlarimizga, ularning ota-onalari, ustoz va murabbiylariga samimiy minnatdorlik bildirdi.

— Yangi O'zbekistonni ayollari hayotdan rozi bo'lib, baxtli-saodatli yashaydigan mamlakatga aylantirish — mening eng katta niyatim. Ishonchim komil, sizdek fidoyi, shijoatli, mehnatkash ayollarimiz, butun xalqimiz bilan birga ezgu maqsadlarimizga, albatta, erishamiz! — dedi davlatimiz rahbari. Zero, bu ezgu maqsad bugun mamlakatimizda kechayotgan islohotlar mazmunida o'z aksini topyapti.

FAKT. Xotin-qizlar hayotidagi ijobiy o'zgarishlar xalqaro maydonda ham e'tirof etilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Parlamentlararo Ittifoqning "Parlamentdagi ayollar" reytingida 92 pog'ona yuqorilab, 36-o'rinni egalladi. "Gender tenglik va boshqaruv" indeksida mamlakatimiz 103-o'rindan 52-o'ringa ko'tarildi. Jahon bankining "Ayollar, biznes va qonun" indeksida esa 43 pog'ona yuqorilab, 48-o'rinni egalladi.

Eng yoqimli kalom

3-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev huzurida mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash masalalari yuzasidan yig'ilish o'tkazildi. Unda yurtimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkamlash, harbiy xavfsizligini ta'minlash masalalari, shuningdek, joriy yil 13-yanvar kuni Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosining borishi ko'rib chiqildi. Dunyoda keskinlik va mojarolar o'choqlari saqlanib qolayotgani, geosiyosiy raqobat kuchaygani, yangi xatar va tahdidlar xavfi ortib borayotgani ta'kidlandi. Ayrim mintaqalardagi harbiy harakatlar jiddiy gumanitar va iqtisodiy

oqibatlariga olib kelayotgan notinch xalqaro vaziyat sharoitida mamlakatimiz mudofaa qobiliyatini mustahkamlash hamda xavfsizligini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz 4-mart kuni O'mon, Birlashgan Arab Amirliklari, Kuvayt, Qatar, Bahrayn, Iordaniya yetakchilari bilan telefon orqali suhbatlashdi. Muloqotlarda Yaqin Sharqdagi hozirgi murakkab vaziyat muhokama qilinib, yuzaga kelgan beqarorlik jiddiy tashvish uyg'otayotgani qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Yaqin Sharq mamlakatlari yetakchilari bilan suhbatda O'zbekiston har qanday qarama-qarshilik hamda ziddiyatni siyosiy-diplomatik va tinch yo'l bilan, muzokaralar orqali hal qilishning qat'iy tarafdori ekanini bildirarkan, muloqotlar chog'ida muhim bir siyosiy aspekt bizni alohida hayajonga soldi, qalbmiz to'liqlandi.

Prezidentimiz telefon orqali suhbatlarda bu mamlakatlarda bo'lib turgan O'zbekiston fuqarolarining taqdiri, xavfsizligi, salomatligi haqida so'radi. Yurdoshlarimizni Vatanga qaytarish masalalari muhokama qilinib, shu maqsadda ko'rilayotgan chora-tadbirlar uchun alohida minnatdorlik bildirildi.

Tahlikali hududlarda qolib ketgan yurtidoshlarimizni Vatanga qaytarish bo'yicha Prezidentimizning shaxsan o'zi tegishli idoralari rahbarlariga ko'rsatmalar bergani, bu masalaga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi kerakligini aytgani va nihoyat shu kunga qadar minglab yurtidoshlarimiz tinch-osoyishta, fayzli, aziz zaminimizga sog'-omon olib kelangani har birimizda mehr va birdamlik tuyg'ularini jo'sh urdirdi.

Shuningdek, mamlakatimiz yetakchisi Ozarbayjon Prezidenti bilan ham telefon orqali muluqot qildi. Fuqarolarimizni Erondan Ozarbayjon hududi orqali xavfsiz evakuatsiya qilish bo'yicha ko'rilayotgan choralar va yaratilayotgan sharoitlar uchun Ilhom Aliyevga minnatdorlik bildirdi.

FAKT. O'zbekiston Prezidentining maxsus topshirig'i bilan evakuatsiya ishlari boshlangach, rezident aviakompaniyalar maxsus reyklar amalga oshirib, qisqa vaqtda minglab yurtidoshimiz Vatanga qaytarildi. Jarayonni muvofiqlashtirish uchun "O'zavitsiya" agentligida 24/7 rejimda ishlaydigan shtab tashkil etildi.

Bir rubobning ikki tori

O'zbek va tojik xalqlari o'rtasidagi aloqalar mustahkam tarixiy ildizlarga ega. Bir o'zandan suv ichgan xalqlarimiz tarixi, taqdiri tutash, urf-odatlar, qadriyatlar an'analar yaqin, maqsadlari mustahkam, azaldan qunda-andalik, qarindoshlik aloqalari mustahkamlab kelgan. Asriy aloqalar yangi O'zbekiston sharoitida zamonaviy bosqichda yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik aloqalari izchil kengayib, siyosiy muluqot bilan bir qatorda savdo-iqtisodiy, transport va gumanitar sohalarida ham aniq natijalarga erishilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining taklifiga binoan Tojikiston Respublikasi Prezidenti Emomali Rahmon 26-27-mart kunlari davlat tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi. Davlatimiz rahbari ushbu tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi do'stlik va yaxshi qo'shniçilik kengaytirilgan yig'ilishida mustahkamlash muhim bosqich ekanini ta'kidlab, "Bugun biz Oliy davlatlararo kengashning birinchi yig'ilishini boshlab bermoqdami. Ushbu format, shubhasiz, ikki tomonlama hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'taradi, O'zbekiston — Tojikiston strategik sheriklik va

ittifoqchilik munosabatlarini amaliy mazmun va ilg'or tashabbuslar bilan boyitishga xizmat qiladi", dedi.

Tashrif doirasida Oliy davlatlararo kengash yig'ilishi o'tkazildi, ikki davlat o'rtasida Strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini kengaytirish to'g'risida qo'shma bayonot imzolandi. Shuningdek, yetakchilar yirik kooperatsiya loyihalarini ishga tushirish marosimida ishtirok etib, 10 ta qo'shma loyihani boshlab berdi.

Bundan tashqari, Toshkent shahrida Tojikiston elchixonasining yangi binosi ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi. Prezidentlar ramziy tasmani kesib, elchixonaga va konsullik bo'limining ma'muriy binolari, elchi qarorgohi, diplomatlar va ularning oila a'zolari uchun turar joylarni qamrab olgan majmuani ko'zdan kechirdi.

Davlatimiz rahbari Tojikistonning yangi qurilgan elchixonasi faoliyatiga baho berar ekan, bu dargoh ikki xalqning orzulariga xizmat qilsin deya samimiy, do'stona tilaklarini bildirdi. Ushbu tadbir O'zbekiston bilan Tojikiston o'rtasidagi do'stlik, yaxshi qo'shniçilik, strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini mustahkamlashga o'zaro intilish qat'iy ekanini yana bir bor tasdiqladi.

2024-yil 19-aprelda Prezidentimizning Tojikistonga davlat tashrifi doirasida mamlakatimizning Dushanbe shahridagi elchixonasi yangi binosining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tgandi. Har ikki davlatda elchixonalar binosining yangilanishi mamlakatlarimiz o'rtasidagi hamkorlik jadal rivojlanib borayotgani bilan bog'liq.

Tashrifning ikkinchi kuni Tojikiston Prezidenti Buxoro shahrida bo'ldi. Martabali mehmon davlatimiz rahbari hamrohligida dastlab Bahouddin Naqshband maqbarasini ziyorat qildi. So'ng mamlakatlar yetakchilari somoniy maqbarasiga tashrif buyurdi. Maqbaralarga ziyorat chog'ida Qur'on o'yatlarini tilovat qilib, o'tganlarga rahmat, yurtimizga tinchlik va farovonlik tilab, duo qilindi.

FAKT. O'tgan yili ikki mamlakat o'rtasida tovar ayirboshlash hajmi, eng avvalo, tayyor mahsulotlarni o'zaro yetkazib berish hisobiga qariyb 1 milliard dollarga yetdi. 2028-yilga kelib, o'zaro savdoni 2 milliard dollarga yetkazish imkoniyatlari ko'rib chiqilmoqda. Bugungi kunda ikki mamlakat poxtaxlari o'rtasida aviareyslar, avtobus va poyezd qatnovlari yo'lga qo'yilgan. Yuk tashish hajmi jadal o'sib bormoqda.

Kun tartibida sohalar va tarmoqlar rivoji

Mart oyida Prezidentimiz ishtirokida Xorazm, Sirdaryo, Qashqadaryo va Namangan viloyatlarida amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorigi va kelgusi ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilishlar bo'lib o'tdi. Shuningdek, davlatimiz rahbari Toshkent shahri va viloyatida amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlarini ko'zdan kechirish, muhim loyihalarni ishga tushirish marosimlarida ishtirok etdi. Xususan, 16-mart kuni Olmaliq kon-metallurgiya kombinati faoliyati, 24-mart kuni Yangi Toshkentda qold rostlayotgan qator yirik obyektlar bilan tanishdi.

Bundan tashqari, mamlakatimiz yetakchisiga transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan yirik loyihalar, qishloq va suv xo'jaligi uchun muhandis kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, kimyo sanoatidagi yirik investitsiya loyihalarini amalga oshirish, kibernetika va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish hamda axborot texnologiyalaridan foydalanib sodir etiladigan huquqbuzarliklarning oldini olish samaradorligini oshirish masalalariga bag'ishlangan takliflar taqdimot qilindi.

Prezidentimizga neft va gaz sohasida belgilangan vazifalar ijrosining holati, neft-gaz tarmog'ida qazib chiqarish hajmini barqarorlashtirish va yangi zaxiralarni o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar ijrosi yuzasidan hisobotlar berildi. Davlatimiz rahbari raisligida aholi murojaatlari bilan ishlar tizimini takomillashtirish, Xalq qabulxonalarini faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va jamoatchilik fikrini chuqur o'zlashtirish, farmatsevtika tarmog'ida ishlab chiqarishni kengaytirish hamda sohaga ilg'or texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishlari ham bo'lib o'tdi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari mart oyining so'nggi kunida mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Qozog'iston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Yermek Kosherbayevni qabul qildi.

FAKT. Davlatimiz rahbari Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 3-mis boyitish fabrikasini ishga tushirish marosimida ishtirok etdi. Fabrika yiliga 60 million tonna ma'danni qayta ishlash, 900 ming tonnaga yaqin mis konsentratini ishlab chiqarish quvvati bilan nafaqat Markaziy Osiyodagi eng yirik mis ishlab chiqaruvchi majmualardan biri, balki dunyodagi yirik boyitish fabrikalari sirasiga kiradi.

Davlat dasturi amalda

Berilayotgan imtiyozlardan XABARDORMISIZ?

Ekologik xavfsizlik haqida gap borganida asosiy muammolardan biri sifatida transport vositalaridan chiqadigan zaharli gazlar tilga olinadi. Agar bitta eskirgan avtomobilning chiqadigan tutun havoni qanchalik ifloslantirishi, atrofdagilarning nafasini bo'g'ishini hisobga olsak, minglab shunday transport vositasining atrof-muhitga yetkazadigan zararini chamalash qiyin emas. Bugun mamlakatimizda ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilib, "ekologik transport" tizimiga o'tilayotgani boisi shunda.

Avvaliga ekologiya va inson salomatligi uchun salbiy ta'sirga ega bo'lgan, tarkibidagi zararli moddalar sabab havoni jiddiy ifloslantirishi aytilgan Al-80 benzinidan voz kechildi. 2025-yilning sentabr oyidan yurtimizda ushbu turdagi benzinni ishlab chiqarish to'xtatilib, 1-dekabrdan sotuviga to'liq chek qo'yildi.

2026-yil 1-yanvardan boshlab esa barcha avtotransport vositalarini ekologik toifa va sinflarga ajratish hamda ular asosida ekologik berish tartibi belgilandi. Ya'ni tegishli diagnostika tekshiruvlaridan so'ng transport vositasiga uning ekologik toifasini tasdiqlovchi elektron ma'lumotlarni o'z ichiga olgan maxsus yorliq yopishtirilmoqda. Bu oddiy qog'oz emas, har bir stiker rangi u yopishtirilgan avtomobilning ekologiya uchun qanchalik xavfsiz ekanini bildirib turadi. Qolaversa, avtomobilni bir yilda bir marta diagnostika tekshiruvidan o'tkazish orqali unga tegishli

import qilinib, bu boradagi ko'rsatkich ikki baravardan ko'proqqa oshgan. Mamlakatimiz bo'yab elektromobillar sotuvi esa 35 foiz ortgani qayd etilgan. Hatto bu ko'rsatkich bozor o'rishini ta'minlagan asosiy drayverlardan biri bo'lgan. Tahlillarga ko'ra, o'tgan yili hududlar kesimida elektromobillar sotuvining asosiy qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri kelgan, keyingi o'rinlarda Samarqand, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari bo'lgan.

Chindan, odamlarda ham elektromobillarga qiziqish ortib boryapti. Zamonaviy avtomobilsozlikning bu namunalari nafaqat boshqarishdagi qulayligi, balki kamxarajligi, avtomobilni quvvatlantirish yoqilg'i quyishiga nisbatan bir necha barobar arzonaga tushishi, asosiy, ekologik xavfsizligi boisi, ko'pchilikning e'tiborini tortyapti. Shahar sharoitida bunday avtomobillar ko'payishi yurtimizda ekologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Yo'llarda elektromobillar ko'payishi uchun odamlarning uni sotib olishga bo'lgan to'lov qobiliyatini rag'batlantirish lozim. Chunki elektr tokida harakatlanadigan avtomobillarning narxi arzon emas. Aksariyati xorijdan import qilingani bois, bojxona to'lovlari sabab nisbatan qimmat baholanadi.

16%



16 FOIZLI AVTOKREDIT

Shu bois, mamlakatimizda elektromobillarni sotib olish va ularidan foydalanishda odamlarga yangilik yaratish maqsadida yangi imtiyozlar joriy etilmoqda. Asosiy harakat imtiyozli avtokreditlash mexanizmini yo'lga qo'yishga qaratilgan. Bunda elektromobil sotib olish uchun kreditlar stavkasi yillik 16 foizgacha darajada belgilanishi ko'zda tutilgan. Foiz stavkasining

belgilangan chegaradan oshgan qismi davlat byudjeti mablag'lari hisobidan tijorat banklariga kompensatsiya qilinadi.

Agar o'tgan yili ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda avtokreditlar bo'yicha o'rta stavka 24,1 foizni tashkil etganini hisobga olsak elektromobillar uchun belgilanayotgan 16 foizli stavka kattagina imtiyozdir. Ushbu mexanizim

shu yil 1-sentabr amaliyotga kiritilishi rejalashtirilgan. Birinchi bosqichda 15 ming fuqaroga elektromobil sotib olish uchun yillik 16 foiz stavkada avtokreditlar ajratiladi.

Shahar yo'llarida elektromobillar ko'payishi ularni quvvatlantirish stansiyalariga talabini ham oshiradi. Elektromobil boshqaradigan yaxshi biladi, yaqin vaqtgacha bunday stansiyalarning nisbatan kamligi sabab uzoq navbat kutishga to'g'ri keladi. Bu odatda quvvatlash vaqtining ko'p davom etishi bilan ham bog'liq. Masalan, uzoq muddatli quvvatlantirishda bitta avtomobil to'la quvvatlanishi uchun 8 soat vaqt talab etiladi. Tezkor quvvatlantirishda esa bu 1 soatga teng.

Ammo keyingi yillarda jahonda bu yo'nalish tobora takomillashib, elektromobilni 15 daqiqada quvvatlantirish stansiyalari paydo bo'lmoqda. Yurtimizga ham quvvatlash stansiyalari kirib kelishi ko'paygan, hatto o'zimizda ishlab chiqarilayotgan. Masalan, birgina uzoq muddatli quvvatlantirishda bitta avtomobil to'la quvvatlash stansiyalari ishlab chiqarish imkoniyati mavjud. Korxonada bo'lim boshlig'i Umid Ahmadovning aytishicha, ayni paytda yurtimiz bo'yab 70 ta obyektga ushbu zavod tomonidan ishlab chiqarilgan 100 dan ortiq zaryadlash stansiyasi o'rnatilgan.

Ana shunday korxonalariga qulaylik yaratish hamda elektromobillarni quvvatlantirish infratuzilmasini yaratish bo'yicha ham davlat dasturida aniq vazifalar belgilangan. Xususan, joriy yil 1-maydan tadbirkorlarga quvvatlantirish stansiyalarini tashkil etish uchun yillik 10 foiz stavkada imtiyozli kreditlar ajratish, yer uchastkalarini auktsion orqali bozor narxidan ikki baravar arzon narxda sotib olish imkoniyatini yaratish boshlanadi.

Chunki elektromobillar soni kun sayin ortib boryapti, demak, zaryadlash stansiyalariga ham talab oshadi. Shu bois, joriy yil 1-mayga qadar yurtimizda elektromobillarni quvvatlantirish

stansiyalari sonini 4 mingga yetkazish belgilangan. O'tgan yilning shu davri holatida ularning soni 1399 ta edi.

Bugungacha ushbu yo'nalishda ish boshlashni maqsad qilgan tadbirkorlarni ko'proq yer masalasi qiyin keladi. Ya'ni shahar markazi, avtomobil serqatnov manzillarida yer narxi ancha qimmat. Chetqoq joylarda esa stansiyadan foydalanuvchilar soni ko'p bo'lmisligi mumkin. Stansiyalar uchun yer narxlarini arzonlashtirib berilayotgani esa ishbilarmonlar uchun ayni muddao bo'ladi.

Zaryadlash stansiyalari bo'yicha imtiyoz va qo'llab-quvvatlov faqatgina tadbirkorlar uchun emas. Aholiga ham bu borada yaxshigina imtiyozlar belgilangan. Ya'ni avtomobil egalari uchun elektr quvvatlantirish xarajatlarini subsidiyalash va byudjetdan kompensatsiya qilinadigan imtiyozli kreditlar ajratish choralarini ko'riladi. Masalan, endi elektromobillarni quvvatlash stansiyalarida quvvatlash vaqtida 1 kilovatt-soat elektr energiyasi narxining 300 so'mdan oshgan qismi davlat byudjeti hisobidan qoplab beriladi. Bugungi kunda tariflar 1 kilovatt-soat uchun 1800 so'mdan 2200 so'mgacha o'zgarib turadi. Agar 1800 so'mlik tarifda hisoblasak, elektromobil egasi avtomobilni quvvatlash uchun 1 kilovattga 300 so'mdan to'lagan taqdirda qolgan 1500 so'mni davlat qoplab beradi. Bu davlat to'lovning besh barobaridan ko'prog'ini to'lab berishni o'z zimmasiga olyapti degani.

Bunday imtiyoz elektromobilidan foydalanish xarajatlarini yanada arzonlashtiradi. Aslida, hozir ham bu xarajatlar yoqilg'ida harakatlanadigan avtotransport vositalaridan ancha arzon. Shaxsan o'zim odatda elektromobilni 130 ming so'mga to'la quvvatlantirib, shu bilan kamida besh kun harakatlanishim haqida aytam, ko'pchilik hayratda qoladi. Hisoblaganimda, bu boshqa avtomobillarning xarajatidan bir necha barobar kamligi ko'rinadi. Endi buning ham katta qismi davlat tomonidan subsidiya asosida qoplab berilishi xarajatlarini yanada kamaytiradi.



toifadagi stiker berilgach, uning hududlarda harakatlanishi ham shu asosda belgilanadi.

Bu shahar sharoitida eskirgan, texnik talablarga javob bermaydigan, atrof-muhit uchun zararli ta'sirga ega avtomobillardan birin-ketin voz kechishga qaratilgan harakatlarim bir qismidir. Shu bois, joriy yil 1-fevraldan boshlab yana bir muhim chora belgilandi. Ya'ni yurtimizda ishlab chiqarilganiga 50 yil va undan ko'p bo'lgan avtomobillardan foydalanish hamda ularni qayta ro'yxatdan o'tkazish tegishli qaror bilan taqiqlandi. Antikvar avtomobillar uchun esa alohida seriyali davlat raqam belgilari joriy etiladigan bo'ldi.

Ammo "ekologik transport" tizimining asosiy maqsadi inson salomatligi va atrof-muhitga zarar keltiradigan eski avtomobillardan voz kechishdangina iborat emas, balki ularni ekologik toza transport vositalariga almashtirish, shahar sharoitida elektromobillardan foydalanishni rag'batlantirishga qaratilgan.

Bundan bir necha yil ilgari bu haqida gapirilsa, o'rinsiz ko'rinardi. Chunki yurtimizga elektromobillarni olib kirish va foydalanish ko'rsatkichi nihoyatda kam bo'lgan. Qolaversa, ushbu turdagi avtomobillar ham analoqiyatda sinovimizdan o'tib, ishonchimizga kirmagandek hali. Bugun esa talabga yarasha taklif yetarli, mahalliy avtosalonlarda elektromobillarning har qanday turini topish mumkin. Odamlar orasida ham bunday avtomobillar yaxshigina ommalashdi.


Ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda O'zbekistonda 57 mingga yaqin elektromobil

Shu bois, O'zbekistonda elektromobillar infratuzilmasini yaxshilash va "yashil transport"ni rag'batlantirish bo'yicha yangi chora-tadbirlar ko'rilayotgan. Prezidentimizning tegishli farmoni bilan qabul qilingan 2026-yilgi davlat dasturida bu boradagi aniq vazifalar ko'rsatilgan. Unda imtiyozli avtokreditlar, subsidiyalalar va soliq chegirmalaridan tortib, elektromobil taksisi qildiganlar uchun yoqilg'liklar, quvvatlash stansiyalaridagi tariflarni pasaytirish kabi islohotlarni amalga oshirish muddatlarigacha ko'rsatib berilgan.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Shuning uchun hozir taksi xizmatlarida elektromobillardan foydalanish ommalashib boryapti. Arzon sarf-xarajat ko'proq daromad qilish imkoniyatini beradi. Qolaversa, buyurtmachilarning o'zi ham ko'proq elektr tokida harakatlanadigan avtomobillarni chaqirayotgani kuzatilmoqda. Bu ushbu turdagi transport vositalarining yengil, shovqinsiz harakatlanishi, mashina salonidan benzin hidi kelib turmasligi, o'zidan zararli tutun chiqarib, oynani yopib o'tirishga majbur qilmasligi kabi omillar bilan bog'liq bo'lsa kerak. Har holda yurtdoshlarimiz elektromobillarga ham, elektromobillarga ham ancha o'rgandi. Demak, talabga yarasha taklifni oshirish kerak.



SOLIQDAN CHEGIRMA

O'tgan yili bir tanishim o'zini o'zi band qilgan fuqaro sifatida ro'yxatdan o'tib, taksichilik faoliyati bilan shug'ullanish harakatiga tushdi. Ish boshlashdan avval taksichilik litsenziyasini olishi zarurligi va uning xarajati nari-berisi bilan 700 ming so'mdan oshishini o'g'rinib aytdi. Ammo bir muddat o'tgach, litsenziyani mutlaqo tekin olganini quvonib gapirdi. Gap shundaki, tanishim elektromobil boshqaradi va bu turdagi transport vositalari egalari litsenziya olish bepul ekan.

Sal oldinroq o'zim ham elektromobilning davlat raqam belgisini almashtirganimda, ro'yxatdan o'tish jarayonlari uchun talab etiladigan xarajatlar yoqilg'ida harakatlanadigan avtomobillarga nisbatan ikki barobar arzon ekanini ko'rib hayron qolgandim. O'shanda mamlakatimizda "ekologik transport" tizimini rag'batlantirish allaqachon amalda ko'lanilayotgani, faqat bu haqida ko'pchilik bilmasligi haqida o'ylagandim.

Davlat dasturi bilan bu imtiyozlar yanada kengaytirilmoqda. Joriy yilning 1 martidan

yurtimizda kuchga kirgan yangi mexanizim — elektromobil taksisi faoliyati bilan shug'ullanuvchi o'zini o'zi band qilgan shaxslarni rag'batlantirish shulardan yana biri. Endi ko'zda tutilgan qator imtiyozlar sabab elektromobil egalari uchun taksichilik qilish yanada osonlashib, daromadli yo'nalishga aylandi.

Avvalo, elektromobillarda taksi xizmati ko'rsatuvchi o'zini o'zi band qilgan fuqarolar uchun ijtimoiy soliqning belgilangan stavkasiga 10 foiz chegirma berilmoqda. Shuningdek, ularga davlat tashkilotlariga tegishli, jumladan, aeroportlar va vokzallar hududidagi avtoturargohlardan 30 daqiqa davomida bepul foydalanishga ruxsat etiladi. Qoidabuzarlik va YTH sodir etmasdan 1 million kilometr masofada taksi xizmati ko'rsatgan fuqarolarga esa "Tabiat himoyachisi" ko'krak nishoni topshiriladi.

Shu tariqa 2026-yil yakuniga qadar elektromobillarda ishlaydigan taksichilar sonini 300 ming kishiga yetkazish ko'zda tutilgan. Soliq qo'mitasining fevral oyidagi ma'lumotlariga ko'ra, taksoparkdagi elektromobillar ulushi 1,9 foizni (12,1 mingga) tashkil etadi. Demak, yil oxirigacha ularning sonini 25 baravar oshirish kerak.

Bu aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishga ham xizmat qiladi. Qolaversa, yurtimiz ko'chalarida elektromobillar soni ortishi hisobiga atmosfera ifloslanishi 7 foiz kamayishi kutilmoqda.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Prezidentimiz rahbarligida shu yil 4-fevral kuni Farg'ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan yig'ilish o'tkazildi. Unda o'tgan yili bajarilgan ishlar sarhisob qilindi hamda joriy yil aholi manfaati, farovonligi yo'lida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar belgilab berildi. Jumladan, Toshkent shahri va Samarqand viloyati tajribasi asosida "Farg'ona invest kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi. U orqali davlat ishtirokini bosqichma-bosqich kamaytirish, xususiy kapitalni keng jalb qilish va aktivlarni professional boshqarish mexanizmi yo'lga qo'yiladi.

Viloyatga xalqaro moliya bozorlarida ishonch ortib bormoqda. "Standard & Poor's" xalqaro reyting agentligi Farg'ona viloyatiga "BB — barqaror" reytingini berdi. Hozir "Moody's" agentligi bilan ham hududiy reytingni belgilash bo'yicha amaliy ishlar davom ettirilmoqda. Hududda ijtimoiy-iqtisodiy va tadbirkorlik faoliyati uchun zamin hozirlash maqsadida xalqaro moliya institutlaridan 300-

500 million AQSH dollari miqdorida kredit jalb qilinadi. Bu mablag' hisobidan 222 ta ijtimoiy obyekt ta'mirlanadi, 25 ta kichik sanoat hamda 50 ta yangi maxsus sanoat zonasi uchun infratuzilmani qurilib, umumiy qiymati 378,3 million dollarlik istiqbolli loyihalar amalga oshiriladi.

Barqaror o'sish sur'atini ta'minlash orqali 2030-yilga borib, viloyat yalpi hududiy mahsuloti hajmini 15 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Joriy yilning o'zida ushbu ko'rsatkich 10 milliard dollardan oshirilib, investitsiyalar hajmi 4,2 milliard, eksport qiymati esa 1,6 milliard dollarga yetkaziladi.

Kambag'allikka qarshi "loyihaviy yondashuv" asosida viloyatda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish 2026-yildagi eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida belgilab berildi. Bunda ijtimoiy yordam bilan cheklanib qolmay, har bir oila uchun alohida daromad xaritasini ishlab chiqish, kasb-hunar, mulk, tomorqa, kredit va bozorga chiqish orqali barqaror daromad manbalari yaratilmoqda. Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon, Quvasoy shaharlari, Uchko'priq, Buvayda, Quva, O'zbekiston, Zo'yovon tumanlari ishsizlik va kambag'allikdan xoli

FARG'ONA XALQARO REYTINGLARDI E'TIROF ETILDI



Farovonlik xaritasi



Gulchehra JO'RAYEVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

hududga aylantiriladi. Yil yakuniga qadar kambag'allik darajasi 2,7 foizga tushirilib, ishsizlik 3,7 foizgacha kamaytiriladi.

"Yangi O'zbekiston qiyofasi" loyihasi doirasida 30 ta mahallaga 150, kambag'allik darajasi yuqori 110 mahallaga esa 220 milliard so'm ajratildi. Qo'shimcha ravishda mahalliy byudjet hisobidan 110 milliard so'm yo'naltirildi. Har bir mahalla bo'yicha "solishtirma ustunliklar" aniqlanib, ajratilgan mablag'dan eng samarali yo'nalishlarda foydalaniladi. Quva tumani "Qaqir" mahalla fuqarolar yig'inida aholi farovonligi, hududlar obodligi yo'lida amalga oshirilgan tajriba bunga yaqqol misol bo'la oladi. Bu yerda davlat ajratgan 7 milliard so'mga javoban mahalliy tadbirkorlar 70 milliard so'mdan ortiq investitsiya kiritdi.

Ayniqsa, maxsus sanoat zonalarini qurilishi uchun 1077 gektar yer ajratilganini farg'onalik tadbirkorlar katta minnatdorlik bilan qabul qildi. Buning uchun mahalliy tadbirkorlar katta minnatdorlik bilan qabul qildi. Ayniqsa, maxsus sanoat zonalarini qurilishi uchun 1077 gektar yer ajratilganini farg'onalik tadbirkorlar katta minnatdorlik bilan qabul qildi.

Joriy yilning o'zida 1424 loyiha ishga tushirilib, 4,2 milliard dollar investitsiya o'zlashtirilib hamda 52 mingga yangi ish o'ri ochiladi. Bu o'tgan yilga nisbatan 1,1 barobar ko'p demakdir.

elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Hozir Farg'ona tumanida Xitoyning "China Everbright Environment Group" kompaniyasi ishtirokida chiqindilarni termik qayta ishlash orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish loyihasi jadal amalga oshirilayotgan.

Qishloq xo'jaligida daromad va hosildorlik ustuvor sohaga aylandi. Suv xo'jaligida "aqlli" texnologiyalar joriy etilib, intensiv bog' va akvakultura loyihalari amalga oshirilishi hisobiga fermerlar daromadini kamida 1,5 barobar oshirish maqsad qilingan. Bu yil 371,5 ming gektar maydondagi ekinlardan 7,2 million tonna mahsulot olish mo'ljallangan.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va sport sohasida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali xizmatlar sifati yangi bosqichga olib chiqildi. Maktabgacha ta'lim qamrovi 87,4 foizga, aholining sport bilan muntazam shug'ullanishi 32,5 foizga yetkazildi. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik asosida 306 million dollarlik zamonaviy ko'p tarmoqli shifoxona, yuqumli kasalliklarni davolash markazlari va tibbiyot klasterlari tashkil etiladi.

Turizm hududiy o'sishning muhim sohalardan biriga aylangan. Bu yil viloyatga 3,5 million sayyohni jalb etish orqali turizm eksporti qiymatini 187 million dollarga yetkazish choralarini belgilab olingan. Shu maqsadda yangi xalqaro aviaqatnovlar, 5 ta yirik turizm zonasi, "Farg'ona" turistik-rekreatsiyon hududi va xalqaro festivallar o'tkazish orqali sayyohlar oqimi sezilarli ortadi.



ILM-FAN VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI

MAMLAKATIMIZ INDUSTRIAL SALOHIYATINI MUSTAHKAMLASHGA XIZMAT QILADI

Yangi O'zbekiston taraqqiyotining zamonaviy bosqichida milliy iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, sanoatni yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirish hamda global raqobat muhitiga moslashtirish ustuvor vazifalardan biri etib belgilangan. Bu jarayon muhandis-texnik kadrlarga ehtiyojni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ayniqsa, tog'-kon metallurgiya sanoatida keng ko'lami investitsiya loyihalari amalga oshirilayotgani mazkur ehtiyojning amaliy hosilasidir.



O'tkir XOLIQULOV,
Olmaliq davlat texnika instituti rektori, texnika fanlari doktori

bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash imkonini bermoqda.

Ayni paytda 200 ga yaqin talaba dual ta'lim dasturlari doirasida sanoat korxonalarida amaliy tayyorgarlikdan o'tmoqda. Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining Mis eritish zavodi, Qalmoqqir kon boshqarmasi, 2-mis boyitish fabrikasi, Markaziy ta'mirlash mexanika zavodi singari bir necha korxonasida metallurgiya, konchilik ishi, konchilik elektr mexanikasi, mashinasozlik texnologiyasi kabi qator yo'nalishlarda dual ta'lim dasturlari asosida amaliy mashg'ulotlar o'tilyapti.

Instituting ishlab chiqarish bilan integratsiyasi institutsional darajada mustahkamlangan. Yirik sanoat korxonalarida kafedra filiallari tashkil etilgani ta'lim jarayonini bevosita ishlab chiqarish hududida amalga oshirish imkonini bermoqda. Olmaliq kon-metallurgiya kombinatining yirik ishlab chiqarish korxonalarida institut mutaxassislik kafedralarining 17 ta filiali ochilgan. Bu esa talabalarining real texnologik jarayonlarda ishtirok etishi, nazariy bilimlarni amaliyotda mustahkamlashi, ishlab chiqarish intizomi, jamoada ishlash va kasbiy mas'uliyat kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirishda katta o'rinni tutadi.

Shuningdek, korxonada mutaxassislarining ta'lim jarayoniga faol jalb etilishi hamda o'quv dasturlarining ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiq mutazam takomillashtirilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil bo'lmoqda. Natijada bitiruvchilarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi sezilarli darajada oshishiga erishildi. Ayniqsa, dual ta'lim tizimi zamonaviy sanoat taraqqiyoti talablariga to'liq javob beradigan, amaliy ko'nikmalarga ega va raqobatbardosh muhandis kadrlar tayyorlashda qo'l kelayotir. Mazkur tizimni yanada rivojlantirish, ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi integratsiyani chuqurlashtirish esa, shubhasiz, mamlakatimiz industrial salohiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.



o'quv yuklamasining 40 foizi nazariy, 60 foizi esa amaliy mashg'ulotlarga ajratilgan. Bu esa talabalarga bevosita ishlab chiqarish muhitida

Jumladan, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 3-mis boyitish fabrikasining ishga tushirilishi mamlakat sanoat salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiluvchi muhim strategik loyiha sifatida baholalanmoqda. Chunki bunday yirik sanoat obyektlarining ishga tushirilishi iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlari ochish va aholi farovonligini oshirishda muhim omildir.

Zamonaviy majmua ishga tushirilishi natijasida mis konsentratini ishlab chiqarish hajmi kunlik 2400 tonnadan 5000 tonnaga yetkaziladi, 6000 dan ortiq yangi ish o'ri ochiladi. Eng muhimi, ishlab chiqarish jarayoniga AQSH, Germaniya, Rossiya, Xitoy va Finlyandiyaning ilg'or texnologiyalari joriy qilinayapti. Ular to'liq raqamlashtirilib, sun'iy intellekt asosida boshqariladigan tizimga ulanmoqda.

Shuningdek, "Yoshlik-1" va "Qalmoqqir" konlaridagi yirik xomashyo zaxiralaridan samarali foydalanish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda ishlab chiqarish jarayonini raqamlashtirish sohada yuqori malakali muhandis kadrlarga talabni kuchaytirmoqda. Bu, o'z navbatida, ta'lim tizimini ishlab chiqarish bilan uzviy bog'lash zarurati yuzaga keltirdi. Shu nuqtaiy nazardan, Olmaliq davlat texnika institutida ta'lim jarayoni dual ta'lim tamoyillari asosida tashkil etilgan bo'lib,



AQLLI

XAVFSIZLIK TIZIMI

12 YOSHLI BEHRO'ZNING IXTIROSI IS GAZIDAN OGOHLANTIRADI



Har bir insonning bolaligi o'ziga xos kechadi. Kimdir ko'proq sport bilan shug'ullanadi, kimdir san'at olamida ilhom izlaydi, yana kimdir virtual o'yinlar dunyosiga sho'ng'iydi va hokazo. 10-12 yoshli akariyat bolalar uchun bu davr qiziqishlar va orzular pallasi, mas'uliyat haqida jiddiy o'ylash esa halli ertadek tuyuladi.

Biroq bugun mamlakatimizda ta'lim sohasiga qaratilayotgan yuksak e'tibor, ayniqsa, aniq fanlar, robototexnika va zamonaviy texnologiyalar yo'nalishidagi islohotlar samarasi o'laroq, shunday yoshlar kamol topmoqdaki, ular nafaqat orzu qiladi, balki jamiyat uchun foydali g'oyalarni ustida izlanishga ham bel bog'lagan.

12 yoshli Behro'z Mahmudov ana shunday intiluvchan yoshlardan. U Zardor tumanidagi 9-maktabning 6-sinfida o'qiydi, haftada uch kun Jizzax shahridagi robototexnika to'garagiga qatnaydi. Izlanuvchanligi, texnik tafakkuri va yangilikka chanoqliqligi bilan tengdoshlaridan ajralib turadi. Atigi yetti oy mobaynida robototexnika to'garagida tahsil olib, qisqa vaqt ichida amaliy ahamiyatga ega loyiha ustida ishlashga va uni muvaffaqiyatli himoya qilishga erishdi.

Biz dars jarayonida bolalarga nafaqat mexanizm yasashni, balki muammoni ko'ra bilishni ham o'rgatamiz, — deydi ustoz Sardor Isroilov. — Chunki haqiqiy ixtiro ehtiyojdan tug'iladi. Shahrimizda is gazisi sabab halok bo'lgan yosh yigit fojiasi meni chuqur o'yiga soldi. Shu voqeadan so'ng o'quvchilarimga mana shunday holatlarda inson hayotini asrashga xizmat qiladigan oqohlantiruvchi qurilma yaratish ustida o'ylab ko'rishlarini so'radim. Ana shu topshiriq Behro'zning qalbida mas'uliyat hissini uyg'otdi. U muammoni

— Ustozimning is gazining fojiali oqibatlarini haqidagi hayotiy hikoyalari menga qattiq ta'sir qildi, — deydi Behro'z. — Shu sabab uning yechimini izlashga tushdim. Bu qurilma bir vaqtning o'zida bir necha amaliyotni bajaradi. Unda aqlli kalit bor, gazni sezgan holatda baland ovozda xabar beradi va barcha elektr jihozlarni bloklaydi. Hozir qurilmani yanada mukammallashtirib, gaz sızib chiqqanda eshik-derazalarning avtomat tarzda ochilishi va xonadon egalari SMS xabaromana yuborish ustida ishlayapman. Qurilmani mukammallashtirib, patent olganimdan so'ng avtomobillar tezligi me'yordan oshmasligini nazorat qiluvchi uskuna yaratmoqchiman.

Bugun Behro'z kichik darsxonada tajriba o'tkazayotgan bo'lsa, ertaga yurtimiz taraqqiyotiga xizmat qiladigan yirik ixtirolar mullifiga aylinishi hech gap emas. Chunki katta kashfiyotlar odatda ezgu niyatdan boshlanadi.

Eng muhimi, uning ixtirosi bizga bir haqiqatni eslatadi — fojialarga qarshi faqat ehtiyot choralarini bilan emas, balki ongli yoshlar, aql va mehr bilan yo'g'rilgan g'oyalarni orqali kurashiladi.

Agar har bir yosh o'z bilimi va iqtidorini inson manfaatiga bag'ishlarsa, ko'plab ko'ngilsiz hodisalarning oldini olish mumkin. Zero, inson hayotidan aziz ne'mat yo'q. Uni asrashga bel bog'lagan yoshlar esa yurtimizning eng katta boyligidir.

Bugun zamonaviy kasblarning aksariyati axborot texnologiyalari bilan chambarchas bog'liq. Dasturlash, robototexnika, sun'iy intellekt va muhandislik kabi yo'nalishlar nafaqat kelajakda talab yuqori sohalar, balki bola tafakkurini shakllantiradigan muhim vositadir. Bunday mashg'ulotlar orqali o'quvchi mantiqiy fikrlashni, muammoni tahlil qilish, sabab-oqibat bog'lanishini anglash va mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi.

Jizzaxda bugun yaratilgan ixcham qurilma balki ertaga yurtimiz, jahon bo'ylab qo'llanilar. Kichik xonadonda boshlangan g'oya ertangi katta innovatsion loyihalarga aylinishi mumkin. Chunki yangi O'zbekiston sharoitida bilim, izlanishga va yangilikka intilish qo'llab-quvvatlanmoqda.

Eng muhimi, bunday yutuqlar yoshlarga ishonch beradi, ruhlanitiradi. Ana shu ishonch bor joyda esa kelajak mustahkam bo'ladi, albatta.

Farhod NE'MATOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



Nuqtayi nazar

Ikromjon RAHIMOV,
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti o'quv-uslubiy boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari



Keyingi davrda yirik texnologik kompaniyalar ichki yollash siyosatini keskin o'zgartira boshladi. Ular orasida Google va IBM kabi yirik korporatsiyalar ham bor. Bu o'zgarishlar asosan nonmudrlarning diplomlari o'rniga amaliy ko'nikmalar, mustaqil o'rganish qobiliyati, murakkab vaziyatlarda yechim topish salohiyati chiqqanida aks etdi. Mazkur holat bugun global tendensiyaga aylanib ulgurgan va u kasblarning tez almashinuvi, mavjud ko'nikmalarning ortayotgani bilan izohlanmoqda.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Agar dunyoning eng ilg'or kompaniyalari diplomni ikkilamchi omil sifatida ko'ra boshlagan bo'lsa, an'anaviy ta'lim tizimi nimaga tayangan holda o'z ahamiyatini saqlab qolishi mumkin? Ayni kunga

kelib ana shu savol bizning ichki tizimimizga ham bevosita tegishi. Chunki ta'lim hali ham ko'p hollarda yakuniy natija sifatida diplom berishga yo'naltirilgan, jarayonning o'zi esa tez o'zgaruvchan muhitga tayyorlashdan ko'ra

mavjud bilimlarni yetkazishga qaratilgan shaklda qolmoqda. Shu tafovut asta-sekin chuqurlashtirib borayotgan bir paytda ta'limning asl vazifasi haqida qayta o'ylab ko'rish zarurati vujudga keladi.

Bugun mehnat bozorida uzluksiz siljishlar, o'zgarishlar hukmron. Bir vaqtlar aniq chegaralarga ega bo'lgan kasblar asta-sekin shaklanib yangilanayapti, ularning o'rinda esa turli ko'nikmalar kesishmasida tarkib topayotgan yangi faoliyat turlari paydo bo'lmoqda. Sun'iy intellekt aynan shu jarayonning markazida turibdi. U inson bajarib kelgan ko'plab vazifalarni o'z zimmasiga oldi. Shu bilan birga, mehnat bozorida o'ziga xos yangi bo'shliq yaratdi. Endi masala nimani bajarish emas, qay tarzda bajarish ustida kechmoqda. Standart vazifalar qadsizlanib borar ekan, noaniq vaziyatlarda harakatlana olish qobiliyati asosiy mezonga aylandi.

Mehnat bozori shu tarzda insondan moslashuvchanlikni, fikr doirasining kengligini talab qilmoqda. Har bir yangi vaziyat oldingi tajribani takrorlashni emas, balki uni qayta talqin qilishni talab etadigan davr bu. Shu bois, ijodiy fikrlash, tanqidiy tahlil, murakkab muammolarni bir necha prizmadan ko'ra olish qobiliyati hozir, ayniqsa, qadrlanadi. Yangi ijtimoiy voqeelik shunday shakllanmoqdaki, u yanada aniqlikdan ko'ra noaniqlik ustun, tayyor yo'ldan ko'ra izlanish muhimroq, yakuniy natijaga qaraganda

ZAMONAVIY TA'LIM PARADIGMASI

OLDIMIZGA JIDDIY SAVOLLAR QO'YMOQDA



jarayonning o'zi ahamiyatliroq. Shu yo'sinda ta'limning eski modeli tobora ko'proq savollarga sabab bo'layotgan bo'lsa, yangi model hali to'liq shakllanib ulgurmay, uning konturlari asta-sekin ko'zga tashlanib qoldi.

Mana shularning barchasini nazarda tutgan holda xalqaro tajribalar, xususan, iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyotga oid ilg'or yondashuvlar ta'limni kompetensiyaviy asosda qayta qurish zarurligini ko'rsatmoqda.

Bunda ta'lim jarayoni faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, unga shaxsning ko'nikmalari, qadriyatlarini va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan kompleks tizim sifatida qaraladi. Ushbu zamonaviy ta'lim paradigmasida "o'quvchi faolligi" (student agency) tushunchasi markaziy o'rinni egallaydi. Unga ko'ra, ta'lim oluvchi passiv axborot qabul qiluvchi emas, aksincha, o'z hayoti va qarorlari uchun mas'ul faol subyekti o'laroq namoyon bo'ladi.

Pedagogning roli ham tubdan o'zgarimoqda. Endi o'qituvchi an'anaviy ma'noda bilim yetkazuvchi bo'libgina qolmay, ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, yo'l ko'rsatuvchi va shaxsiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi fasilitator, ya'ni tom ma'noda yo'naltiruvchi vazifasini ham o'tashi lozim. Raqamli va texnologik savodxonlikni singdirish, ijodiy va tanqidiy fikrlashni rag'batlantirish, "lifelong learning" — umr bo'yi o'rganish ko'nikmasini shakllantirish kabi vazifalar aynan pedagog faoliyati orqali hayotga tatbiq etiladi. U dars jarayonini oddiy axborot berish doirasidan chiqarib, o'quvchini mustaqil izlanishga, murakkab muammolarni yechishga va asosli qarorlar qabul qilishga yo'naltiradi, shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiluvchi kompetensiyalar tabiiy ravishda shakllanadi.

Demak, sun'iy intellekt rivoji sharoitida ta'lim tizimida faqat texnologik yangilanish bilan cheklanib qolish yetarli emas. Asosiy e'tibor insonning ma'naviy-axloqiy rivoji, hayot mazmunini anglashi va jamiyatdagi o'rini belgilay olish qobiliyatiga qaratilishi lozim. Zamonaviy ta'lim siyosati va amaliyoti tayyor bilim berish modelidan voz kechib, yangi bilim yaratiladigan insonlarni tarbiyalashga yo'naltirilishi zarur. Ana shunday ta'lim tizimi jadal o'zgaruvchan dunyo talablariga munosib javob bera oladi.



G'aroyib suhbatdosh

“YASHIL MAKON”

umummilliy loyihasi:

MAQSAD — MUNTAZAMLIK

Kunlar isib, ancha jonlangan tabiat o'z taftini insonlar bilan bo'lishish, ularning ko'ngliga iliqlik ulashish bilan ovora. Tevarakka boqsangiz, hamma harakatta: kimdir gul, kimdir daraxt ko'chatini yerga qadagan, yana kimdir yer ag'darish bilan band, boshqa birov urug' sepgan... Ayniqsa, ko'chat bozori jonlangan, odamlar kelib, quchoq-quchoq ko'chat ko'tarib ketyapti. Tashkilotlar, idoralar ko'chatchilik xo'jaliklari bilan shartnoma tuzib, yoppasiga katta-katta maydonlarda bog' va ekinzorlar barpo qilishga kirishgan.

Qatordan qolmay deb, dam olish kunlari olma, shaftoli va gilos nihollarini keltirib, ekishga hozirlik ko'ra boshladim. Yerni chuqur qilib kovlayotсам, qo'shimchi Boltavoy aka o'tib qoldi. U mirishkorlik hadisini olgan. Uyi va ko'chasi turli ekin va o'simliklardan bog' bo'lib ketgan. Ishimni bir oz kuzatib, yonimga kelgach, ko'chatlarni ko'ngliga oldi.

— Mana bu olmaning yovvoyiroq navi shekilli, gilos esa durustga o'xshayapti. Shaftoli ham yaxshi ekan. Nihollarni palapartish ekib bo'lmaydi. Bular tez o'sishi va serhosil bo'lishi uchun shox va ildiziga ishlov berish kerak. Parvarishi ham kishidan hafsa talab qiladi.

Bilgan baribir yaxshi ekan. Boltavoy aka menga ko'chat ekish masalasi ancha tushuncha berdi. Bu ishning shuncha nozik jihati borligini bilmas ekanman. Nazarimda, nihollarni ekib bo'lganimizdan keyin ko'chatlar ancha viqorli va yerga mustahkam o'mashgandek bo'ldi. Demak, har ishni bilib bajarishda hikmat ko'p ekan. Kelajakda bu ko'chatlar o'sib, azim daraxtga aylanishi, mo'l hosil berishi, undan barcha birdek bahramand bo'lishini o'yladim, qilgan ishmdan mamnunlik ikki-uch kundan buyon meni tark etmayotgani ham rost.

Kuni kecha yurtimiz ahli yana bir xayrli ishga guvoh bo'ldi. Prezidentimiz “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko'chat ekish tadbirida qatnashib, Milliy dendrologiya bog'ini barpo etishga start berdi.

— Ha, belni mahkam bog'laganimiz rost. Bir necha yildirki, mamlakatda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi tadbirlar samaradorligini oshirish, o'rmonlar va yashil hududlar maydonini kengaytirish, ularidan samarali foydalanish hamda cho'llanishga qarshi kurashish ishlarini tizimli bajarish, shuningdek, mazkur yo'nalishlarda yagona davlat siyosatini yuritish va muvofiqlashtirish maqsadi jo'shmoqda.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida ekologik muammolar tobora dolzarblashib bormoqda. Iqlim o'zgarishi, havoning ifloslanishi va tabiiy resurslardan nooqilona foydalanish insoniyat kelajagiga jiddiy xavf tug'dirmoqda. Bunday sharoitda tabiatni muhofaza qilish va yashil hududlarni kengaytirishga qaratilgan tashabbuslar alohida ahamiyat kasb etadi. “Yashil makon” umummilliy loyihasi ana shunday muhim ekologik dasturlardan.

Bu tashabbus orqali mamlakat bo'yab keng ko'lamli daraxt ekish ishlari bajarilmoqda. Minglab gektar yer maydonida yangi yashil hududlar barpo etilmoqda. Bu jarayon nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki aholining hayoti sifatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston Prezidentining 2025-yil 30-maydagi “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida hamda o'rmonlarni boshqarish tizimida islohotlarni izchil davom ettirish, yashil hududlarni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni bilan aniq maqsad va tashabbuslar belgilab olingan.



Ekologik muammolarni hal qilishda aholining ekologik madaniyati ham katta ahamiyatga ega. Agar inson tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lsa, atrof-muhitni muhofaza qilish osonlashadi.

Shamol va qum-chang bo'ronlarining zararli ta'sirini oldini olish maqsadida 33 tumanda 60 kilometrli “yashil belbog'” hosil qilindi. Umuman, qisqa muddatda respublikada yashillik darajasi 8 foizdan 14,2 foizga oshdi.

oqilona foydalanish beshinchi ustuvor yo'nalish sifatida e'lon qilindi.

“Deputatlarga o'z okrugidagi muammolarni hal etish uchun 500 milliard so'm, har bir deputatga 3,3 milliard so'mdan beryapmiz. Bu borada “yashil hudud”, “yashil bog'” yaratish bo'yicha har bir deputatning tashabbusiga qo'shimcha 330 million so'mdan yo'naltiramiz. Bunday yondashuv orqali 2030-yilgacha barcha tumanlardagi mahallalarga yangi O'zbekiston qiyofasini olib kiramiz”, dedi mamlakat yetakchisi.

Shuningdek, chang-to'zonlarning oldini olish uchun Surxondaryoda 10 ming gektarda “yashil makon” va Sirdaryoda 84 kilometrli “yashil devor” barpo etilishi, Qoraqalpog'iston, Xorazm, Buxoro va Navoiyda jami 250 ming gektar, jumladan, Orolning quirigan tubida 115 ming gektar yerda daraxt va butalar ekilishi ma'lum qilindi.

Umuman, Murojaatnomada ko'plab meni quvontiradigan vazifalar tilga olindi va ular ijrosiga allaqachon kirishilgan. Masalan, korxonalarda ekostandartlarni joriy qilish uchun kelgusi besh yilda kamida 30 ming ekologiya menejeriga talab paydo bo'ladi. Shuning uchun 2026-yilda har bir hududda “yashil” texnikumlar tashkil etilib, dual ta'lim asosida yiliga 10 ming mutaxassis tayyorlash yo'lga qo'yiladi. Havo, suv va tuproq sifatini aniqlash imkonini beradigan kompleks laboratoriyalar tashkil etiladi. Shaharlarda tabiiy ventilyatsiyani kuchaytirishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkaziladi. Umuman, ekologiya sohasiga 2026-yilda 1 trillion 900 milliard so'm yo'naltiriladi.

Yaqinda, ya'ni 2026-yil 30-mart kuni yana bir muhim hujjat — O'zbekiston Prezidentining “Yashil makon” umummilliy loyihasi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni imzolandi. Uning ijrosi ham mening gullab-yashnashimga xizmat qiladi. Gap shundaki, 2028-yilga qadar Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida qo'shimcha ravishda jami maydoni 100 gektardan kam bo'lmagan botanika va dendrologiya bog'lari tashkil qilinadi. Dendrologiya bog'lari maqomiga ko'ra botanika bog'lariga tenglashtiriladi.

Farmonda botanika va dendrologiya bog'larini tashkil etish maqsadida ajratiladigan yer maydonlari, istisno tariqasida, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiligi

o'mini qoplash bo'yicha kompensatsiya to'lovlaridan ozod qilinishi belgilab qo'yildi. Botanika va dendrologiya bog'larining yer uchastkalarini xususiy lashtirish yoki begonalashtirish, ikkilamchi ijaraga berish, hududini qisqartirish qat'iy taqiqlandi.

— Demak, kechagi tadbir yuqoridagi keng qamrovli ishlarga yangicha shiddat berar ekan-da?

— Agar so'nggi besh yildan buyon “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida har yili 200 million tup ko'chat ekib kelinayotgani, o'tgan davrda 2000 gektardan ziyod maydonda 942 ta yashil bog' va yashil jamoat parki, 47 ta massivda “Yangi O'zbekiston bog'lari” barpo etilganini e'tiborga olsak, shunday bo'lishi tabiiy.

Bundan tashqari, respublikaning tog', cho'l va adir hududlarida 256 ming gektar o'rmon tashkil qilindi. Orolning quirgan tubidagi 2 million gektar maydonda yashil qoplamali himoya o'rmonlari yaratildi. Shamol va qum-chang bo'ronlarining zararli ta'sirini oldini olish maqsadida 33 tumanda 60 kilometrli “yashil belbog'” hosil qilindi. Umuman, qisqa

ifloslanishiga sabab bo'ladi. Bunday sharoitda daraxtlar va yashil hududlar tabiiy filtr vazifasini bajaradi. Mutaxassislar fikricha, bir dona katta daraxt yil davomida bir necha o'n kilogrammgacha zararli moddalarni yutishi mumkin. Shuning uchun shaharlarda daraxtlar ko'payishi ekologik muhitni yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Yashil bog'lar va parklar dam olish, sport bilan shug'ullanish va tabiat qo'ynida vaqt o'tkazish imkonini yaratadi.

Deylik, 2026-yil 1-yanvardan boshlab “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ekilayotgan daraxt va buta ko'chatlarining ko'karuvchanligi, yashovchanligi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligini oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari belgilangan. Masalan, davlat o'rmon xo'jaliklarida respublika hududining iqlim sharoitiga mos daraxt turlarining zamonaviy seleksiya usullaridan foydalanib, sifatli va kafolatlangan urug'larni yetishtirish hajmi 1,5 baravar oshiriladi. Urug'chilik laboratoriyalarida respublika iqlim sharoitiga mos o'simlik turlaridan onalik plantatsiyalari



muddatda respublikada yashillik darajasi 8 foizdan 14,2 foizga oshdi.

— Maqsadlar mazmuni haqida nima deya olasan?

— Maqsadlar ko'lami, aytganimdek, juda keng. Shaharlarda sanoat korxonalari, transport vositalari va boshqa omillar havoning

tashkil qilinmoqda. Yana bir muhim jihati, davlat o'rmon xo'jaliklari yetkazib berayotgan ko'chatlar hajmini 2 baravar oshirish vazifasi qo'yilgan.

Tashabbuslar to'g'risida ham aytib ketay. “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirishda jamoatchilik ishtirokini

kuchaytirish, “Yashil makon” elektron platformasida ochiqlikni ta'minlash va raqamlashtirishga qaratilgan qator mexanizmlar joriy qilinayapti. Keyingisi, loyihaga davlat byudjetidan ajratiladigan mablag' hisobidan qilinadigan ishlar to'g'risidagi ma'lumotlar jamoatchilikka “har bir tiyin sarflanishini kuzatish” tamoyili asosida onlayn yetkazilishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, endi daraxt va butalarni kesish uchun ruxsatnoma berish yuzasidan murojaat qilgan shaxs to'g'risida ma'lumot, ko'chirilishi yoki kesilishi taklif etilayotgan daraxt va ko'chirish sababi, aniq manzili, joylashuvi, foto va videotasvirlarini aks ettirish ham kerak.

Yana bir gap. Ilgari “Mening bog'im” dasturi doirasida har bir loyihaga budjetdan 250 million so'mgacha mablag' berilgan bo'lsa, endi bu miqdor 400 million so'mga oshiriladi. Har bir yashil bog' va jamoat parki uchun aholi o'zi tanlagan, yashash hududlariga yaqin va eng muhimi, suv ta'minoti mavjud joylardan 1 gektargacha yer ajratiladi.

— Bular, albatta, ezgulik yo'lidagi sa'y-harakatlar. Himoya mexanizmlari-chi, ular nimalarni nazarda tutadi?

— O'rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarning qimmatbaho navlarini qonunga xilof ravishda kesgan yoki yo'q qilgan shaxslar tomonidan kompensatsiya sifatida ekilgan daraxt va buta ko'chatlari hisobini yuritish tizimi joriy qilinayapti. Daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesgan jismoniy va yuridik shaxslar, ushbu huquqbuzarliklar hamda ular yuzasidan ko'rilgan choralar bo'yicha “Yashil makon” elektron platformasiga doimiy ravishda ma'lumotlar kiritib borish ham belgilangan.

Eslasangiz, 2021-yil 2-noyabr kuni O'zbekiston Prezidenti o'tkazgan videoselektor yig'ilishida “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish, mazkur loyiha doirasida yiliga 200 million tup daraxt va buta ko'chatini ekish belgilangan edi. Shundan buyon ishlar yuqori bosqichga chiqdi. Bunday keng ko'lamli tashabbus amalga oshirilishi natijasida shaharlarimizdagi yashil maydonlar hududi hozircha 30 foiz kengaytirildi.

Umuman, “Yashil makon” umummilliy loyihasi bu — bir yillik tadbir emas. U muntazamlilik kasb etishi maqsad qilingan va albatta, ijrosi ta'minlanadi. Buning uchun barcha imkoniyat va resurslar yetarli.

— Odamlar ham bu jarayonga astoydil kirishib ketdi. Joylarda xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz namoyon qilayotgan faollik har qancha tashiga loyiq. Shunday emasmi?

— Xuddi shunday. Lekin shu o'rinda masalaning yana bir muhim jihati, ya'ni ekologik madaniyat haqida to'xtalishim lozim. Ekologik muammolarni hal qilishda aholining ekologik madaniyati ham katta ahamiyatga ega. Agar inson tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lsa, atrof-muhitni muhofaza qilish osonlashadi. “Yashil makon” loyihasi bu borada ham muhim. Daraxt ekish tadbirlarida yoshlar, talabalar va fuqarolarning ishtiroki tabiatga nisbatan jamoaviy mos'uliyat hissini shakllantiradi. Bu esa kelajakda ekologik muammolarning kamayishiga xizmat qiladi.

Bugun ekilayotgan har bir nihol kelajak avlod uchun sog'lom va toza muhit yaratishda qo'l keladi. Shuning uchun bu tashabbusda faol ishtirok etish, tabiatni asrashga hissa qo'shish har bir yurtdoshimizning burchidir. Ayniqsa, yoshlar to'g'risida katta faollik ko'rsatmoqda. Maktab o'quvchilari, talabalar va ko'ngillilar daraxt ekish tadbirlarida qatnashib, tabiatni asrashga hissa qo'shmoqda. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali ekologik targ'ibot ishleri keng yuritilayotgani ham quvonarli hol.

Kelgusida loyiha yanada keng ko'lamda amalga oshiriladi. “Yashil shaharlar” konsepsiyasini rivojlantirish, ekologik infratuzilmani kengaytirish va aholining ekologik madaniyatini oshirish istiqboldagi asosiy vazifalardan.

Nodir BEK,
O'zbekiston Jurnalistlar
uyushmasi a'zosi



Davlatimiz rahbari xalqimiz azaldan Navro'z kunlarida, oilasida farzand tug'ilganda tomorqasiga, maydon va xiyobonlarga, yo'l chetlariga yaxshi niyat bilan ko'chat qadab, gulu rayhonlar ekanini ta'kidladi. Hududlarda yashil bog'lar yaratish bo'yicha aholi va deputatlar ishtirokini yanada kengaytirishni taklif qildi.

Mamlakatimiz yetakchisi mahalla raislari, otaxon va onaxonlar, xotin-qizlar vakillari hamda barcha faollarni joylarda milliy urf-odatlar, an'ana va qadriyatlarini yanada keng targ'ib qilish, klublar va jamoalar tashkil etib, har bir ko'cha, xonadon, yo'l bo'ylariga nihol va gullar, qir-adirlarga daraxt va butalar ekishda bosh-qosh bo'lishga chaqirdi.

Bu sa'y-harakatlar yurtimizda bir necha yildan buyon davom etib kelayotgan va samara berayotgan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilayotgan ekan, uning qanday kechayotganini birinchi manba — “Yashil makon”ning o'zidan so'rab qo'ya qolishni ma'qul ko'rdik.

— Ishlar avjida ekanini ko'rib, xursand bo'laypmiz. Ko'lam juda katta-ku, a?

Bundan tashqari, O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, ushbu yo'nalishda muhim chora-tadbirlarni belgilash va sohani rivojlantirish bo'yicha “Yo'l xaritasi” tasdiqlangan. Bugun davom etayotgan ishlar ko'lami ham shunga yarasha bo'laypti.

— Ishlar davlat siyosati darajasiga chiqqan ekan, kutilayotgan samara ham shunga yarasha bo'lishi kerak...

— Albatta. O'tgan yili 26-sentabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev ishtirokida bo'lib o'tgan kengaytirilgan yig'ilishda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar tahlil etilgan edi. Kamchilik va yo'l qo'yilgan nuqsanlar tanqid qilinib, kelgusi vazifalar belgilanganidan so'ng ishlar yangicha shiddat oldi. So'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ham muhim masalalarga alohida e'tibor qaratdi. Ekologik muvozanatni ta'minlash, “yashil” energetika va suv resurslaridan

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — G-446.
30646 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Sanjar Eshmurodov
Musahhib: Akbar Qarshiyev
Dizayner: Xurshid Abdullayev

Manzillimuz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.